

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” KAFEDRASI

ISAKOV MOVLAN DAVRANOVICH

**“MOL-MULK SOLIG‘INI HISOBLASH VA BYUDJETGA
TO‘LASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH
YO‘NALISHLARI”**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Soliqlar va soliqqa tortish”
kafedrasi mudiri

i.f.d., professor Jo‘raev A.C. _____

“ ____ ” _____ 2015 y.

Bitiruvchi: 5230800 – “Soliqlar va soliqqa tortish”
ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi
Isakov Movlan Davranovich _____

Ilmiy rahbar: k.o‘q. Qiyosov Sh. _____

TOSHKENT - 2015

MUNDARIJA	Betlar
KIRISH.....	3
I BOB. MOL-MULK SOLIG‘INING IQTISODIY MOHIYATI, NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA BYUDJET DAROMADLARIDA TUTGAN O‘RNI.....	7
1.1. Bozor munosabatlari sharoitida mulk munosabatlarini soliqqa tortishning ob’ekti sifatida.....	7
1.2. Mol-mulk solig‘ining iqtisodiy mohiyati va byudjet daromadlarini shakllantirishdagi o‘rni.....	12
II BOB. MOL-MULK SOLIG‘INI HISOBLASH VA BYUDJETGA TO‘LASH MEXANIZMI TAHLILI (Chilonzor tuman DSI ma’lumotlari asosida).....	19
2.1. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash va byudjetga to‘lash tartibi tahlili.....	19
2.2. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash va byudjetga to‘lash tartibi tahlili.....	29
III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA QILISH SHAROITIDA MOL-MULK SOLIG‘INI HISOBLASH VA BYUDJETGA TO‘LASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI.....	41
3.1. Mol-mulk solig‘ini amal qilish mexanizmining xorijiy davlatlar tajribasi.....	41
3.2. Mol-mulk solig‘ini hisoblash va byudjetga to‘lash tartibini takomillashtirish yo‘nalishlari.....	51
XULOSA.....	56
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	61

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda bozor munosabatlarining qaror topishi jamiyat hayoti barcha jihatlarini qamrab oluvchi chuqur ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlar bilan birgalikda kechmoqda. Nisbatan tub o'zgarishlar, eng avvalo, ishlab chiqarish vositalariga egalik masalasiga daxldordir. Mazkur vositalardan foydalanish, ularga egalik qilish va ularni tasarruf etishda davlat mulkidan nodavlat mulkchiligining xilma-xil shakllariga o'tish jarayoni bormoqda. Mulkchilik shakllarining turli-tumanligi va muayyan qismining xususiy mulkka erishishi – bu, bozorning tabiiy iqtisodiy negizidir. Mulk hamisha va hamma joyda asosiy bazis masala bo'lib, har qanday jamiyatda u o'ta manfaatdorlik bilan idrok qilingan. Mulkni markazlashtirishdan holi qilish – mustaqil mamlakatlar iqtisodiy hayotining tuzilmasida ro'y beruvchi xuddi shunday jarayonlar bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langandir.

O'zbekistonda soliq munosabatlarini takomillashtirib, ularning iqtisodiyotga ta'sirini oshirish, soliq islohotlarini yanada chuqurlashtirib, soliq tizmini erkinlashtirib borish muhim iqtisodiy ahamiyatga egadir. Shu sababli, mamlakatimiz rivojlanishining muhim ustuvor yo'nalishi sifatida soliq siyosatini erkinlashtirishning belgilanishi bejiz emas. Bu borada davlatimiz rahbari I.A.Karimovning quyidagi bildirgan fikrlariga e'tiborimizni qaratamiz: O'tgan yil yakunlarini sarhisob qilar ekanmiz, birinchi navbatda, iqtisodiyotimiz va uning etakchi tarmoqlarini rivojlantirish borasida barqaror yuqori o'sish sur'atlariga erishganimizni ta'kidlash joiz. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,1 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi 6,9 foiz, kapital qurilish 10,9 foiz, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,3 foizga oshdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor tovarlar tashkil etdi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2014 yilda 9,4 foiz, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 8,7 foiz, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 10 foizga o'sdi. Inflyatsiya darajasi yil yakunlari bo'yicha 6,1 foizni tashkil etdi. Bu prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan

sezilarli darajada pastdir. O'tgan yili soliq yuki 20,5 foizdan 20 foizga, foyda solig'i stavkasi esa 9 foizdan 8 foizga kamaytirilgan bo'lsa-da, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,2 foiz profitsit bilan bajarildi¹.

Darhaqiqat, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida moliyaviy va soliq munosabatlarini takomillashtirish o'ta muhim va murakkab muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Respublika soliq tizimidagi o'zgarishlar bu masalaning ijobiy hal etilishi, turli xil yo'llar orqali amalga oshirilishini amalda ko'rsatmoqda. Ma'lumki, soliq siyosatini erkinlashtirish soliq tizmining muhim tarkibiy qismi hisoblangan mol-mulk solig'ini ham takomillashtirishni talab etmoqda. Mol-mulk solig'i bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida faqatgina davlat byudjetini mablag' bilan ta'minlash vazifasini bajaribgina qolmay, soliq to'lovchining o'zini mulkdor deb xis qilishga ta'sir ko'rsatuvchi omil vazifasini ham bajaradi va moddiy jihatdan ta'minlashga imkon beradi.

Soliq siyosatini erkinlashtirish soliq tizmining muhim tarkibiy qismi hisoblangan mol-mulk solig'ini ham takomillashtirishni talab etmoqda. Mol-mulk solig'i bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida faqatgina davlat byudjetini mablag' bilan ta'minlash vazifasini bajaribgina qolmay, soliq to'lovchining o'zini mulkdor deb xis qilishga ta'sir ko'rsatuvchi omil vazifasini ham bajaradi va moddiy jihatdan ta'minlashga imkon beradi.

Respublikamiz soliq tizimida mol-mulk solig'ini soliqqa tortish mexanizmidagi o'zgarishlarni tahlil qilish va ularni o'rganib chiqib fikr va mulohazalar bildirish bitiruv malakaviy ishimiz mavzusining hozirgi kundagi dolzarbligini bildiradi.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti va predmeti. Mazkur ishimizning obyekti bo'lib yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini budjetga undirish tartibini har tomonlama tahlil etish hisoblansa, bitiruv malakaviy ishining predmeti budjet bilan soliq to'lovchilar o'rtasida bo'ladigan soliq

¹ I.A.Karimov. "2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir". //Halq so'zi. 2015 yil 19 yanvar.

munosabatlari, olinadigan soliq bo'yicha tuman davlat soliq inspeksiyasi va soliq sub'ektlari hamda soliq ob'ektlari o'rtasida vujudga keladigan soliq munosabatlari va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida mol-mulk solig'ini soliqqa tortish mexanizmini tahlil qilish asosida unda mavjud kamchiliklarni aniqlash va ushbu soliqning bir vaqtning o'zida davlat byudjetining daromadlarini shakllantirishi borasida va soliq to'lovchi sub'ektlar manfaatlarigi optimal mos keluvchi mexanizmni yaratishni takomillashtirish masalalari hisoblanadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olingan:

- Bozor munosabatlari sharoitida mulk munosabatlarini soliqqa tortishni nazariy jihatdan izohlash;
- Mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati va byudjet daromadlarini shakllantirishdagi o'rnini o'rganish;
- Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash va byudjetga to'lash tartibini amaldagi holatini tahlil qilish;
- Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash va byudjetga to'lash tartibini tahlil qilish;
- Mol-mulk solig'ini amal qilish mexanizmining xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish;
- Mol-mulk solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibini takomillashtirish yo'nalishlari.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishda ishlab chiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalardan iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ini byudjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati, soliq siyosati kontsepsiyasini ishlab chiqishda va ustuvor yo'nalishlarini belgilashda, byudjetlararo munosabatlarni tartibga solishda, soliqlar bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ilmiy-amaliy ahamiyati hamda maqsadi va vazifalari asoslab beriladi.

Birinchi bobda mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati, nazariy-huquqiy asoslari va byudjet daromadlarida tutgan o'rni izohlab berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobida mol-mulk solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash mexanizmi tahlil (Chilonzor tuman korxonalari misolida) etilgan.

Uchinchi bobda esa, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida mol-mulk solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibini takomillashtirish yo'nalishlari o'rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishda xulosalar umumlashtirilgan, taklif va tavsiyalar berilgan.

I BOB. MOL-MULK SOLIG'INING IQTISODIY MOHIYATI, NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA BYUDJET DAROMADLARIDA TUTGAN O'RNI.

1.1. Bozor munosabatlari sharoitida mulk munosabatlarini soliqqa tortishning ob'ekti sifatida.

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida davlatning mulk masalalarini hal etishga munosabati katta ahamiyatga ega bo'lgan. Yaqin vaqtga qadar, sobiq Ittifoq davrida, mulk munosabatlari faqat huquqiy usullar vositasida tartibga solib kelingan. Mulk davlat tassarrufida edi, u mulkning egasi hisoblanardi. Mustaqillikka erishgach davlat mulki xususiylashtirila boshlandi.

Mulk deganda unumli va unumsiz iste'mol buyumlarini odamlar tomonidan o'zlashtirishning tarixan belgilangan ijtimoiy usuli tushuniladi. Mulk ob'ekti ijtimoiy qadriyatni tashkil etishi hamda o'zida talon taroj qilinishi, o'zlashtirilishi va unga o'xshatib yasalishiga qarshi immunitetga ega bo'lishi kerak².

Odamlar faoliyatining o'zi, maqsad va dalillari bevosita mulk munosabatlaridan kelib chiqadi. Bu munosabatlar kishilarning faoliyat resurslari bilan u uning mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste'mol etish bo'lsin, bundan qat'iy nazar, aloqasini bevosita ifodalaydi. Mulk jismoniy va yuridik shaxslarning resurslar va ulardan foydalanishi natijalarini tasarruf etishlarini chegaralaydi. Bunda mulkchilik huquqi himoya vositasi rolini o'ynaydi. Mulk mafkuraviy munosabat sifatida huquq me'yorlarida mustahkamlangan yuridik favqulodda hodisadir.

Ingliz huquqshunosi A.M.Onore mulk huquqini nisbatan to'la tasniflar ekan, quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatadi:

- egalik (buyumlar ustidan faqat jismoniy nazorat);
- foydalanish (buyumlarni shaxsan tasarruf qilish);
- boshqarish (buyumlardan kim tomonidan va qanday foydalanish lozimligini hal qilish);

² V.Shepelev. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida mulk munosabatlari. Soliq to'lovchining jurnali. 1998. №13. 12 bet.

- daromad olish (buyumlardan avvaldan shaxsan foydalanib kelinganlikdan yohud boshqa shaxslarga ulardan foydalanishga ruxsat berishdan);

- buyumlarni birovlariga o'tkazish, iste'mol qilish, behudaga sarflash, o'zgartirish yoki yo'q qilish;

- buyumlar majburiy tortib olinmasligining daxlsizligini ta'minlash;

- buyumlarni hohlagancha berish;

- muddatsizlik;

- buyumlarni zararli ishlatishni cheklash;

- javobgarlik (buyumlarni qarzni to'lash uchun tortib olish ehtimoli);

- buzilgan qonuniy huquqni qayta tiklash.

Bozor iqtisodiyoti qaror topgan mamlakatlarning qonunchiligida mulk munosabatlarini xarakterlovchi huquqiy me'yorlarga nisbatan katta e'tibor beriladi. Iqtisodiyotga oid adabiyotlarda esa, bu me'yorlar mulk ob'ektlariga egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish tushunchalaridan nariga o'tilmaydi.

Mulk ob'ektlari ular egalari (mulkdorlar)ning talab-ehtiyojlarini bevosita qidirish maqsadlariga xizmat qilish mumkin. Bunda u iste'mol buyumiga aylanadi. Ammo shunday murakkab holatlar bo'ladiki, ularda ehtiyojlar ishlab chiqarish faoliyati orqali qondirilib, asosiy omillar (ishlab chiqarish vositalari, yer, sarmoya, texnologik bilimlar va hokazo) mulkdorlar tomonidan o'zlashtiriladi. Bu narsa ularga aholi qolgan qismining ehtiyojlarini tartibga solish imkonini beradi, odamlarni esa mulkdorlarning mafaatlari yo'lida mehnat faoliyati bilan shug'ullanishga undaydi. Har qanday jamiyatda ijtimoiy sub'ektning ehtiyojlarini qondirish imkoniyati uning boshqa ijtimoiy sub'ektlarga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir, bunda ularning munosabatlar tizimida tutgan haqiqiy mavqeidan kelib chiqiladiki, mulk munosabatlari ularning asosiysi hisoblanadi.

Shunday qilib, mulk munosabatlari tabiiy va ijtimoiy kuchlardan muayyan ob'ektlar ajralib chiqqan va ularga shu ob'ektlar egalari (mulkdorlar)ning huquqlari mustahkamlangan paytdan boshlab vujudga keladi. Shu bilan birga mulk huquqi turli ijtimoiy sub'ektlarning o'zaro hamjihatligi natijasida cheklanadi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitlarida ijtimoiy sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlar negizini ulardan har birining o'z manfaatlarini yagona siyosiy-iqtisodiy tizim doirasida ro'yobga chiqarishga intilishi tashkil etadi. Mazkur negiz ular faoliyatini barcha sub'ektlarini ijtimoiy-iqtisodiy maqomini saqlab qolish va manfaatlar konsensusi asosida bir butun qilib birlashtiradi. Demak, mulk huquqi davlat muhofazasida, mulkdor o'z shartlarin boshqa ijtimoiy sub'ektlarga, birinchi navbatda, xo'jalik faoliyati sohasida majburan qabul qildirishga urinmaguncha bo'ladi.

Ruxshunoslik nuqtai nazaridan olganda, mulkdor shaxsdir. Uni biron-bir narsaga erishishi, o'z mavqeini aniqlab olish va mustaqillikni qo'lga kiritishga qaratilgan muayyan sabablar harakatga keltiradi. "...Mulk haqiqiy egasi qo'lga o'tishi kerak, - deb ta'kidlagan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov - Odamlar ongiga mulkka egalik hissini singdirish lozim"³.

Iqtisod fani nuqtai nazaridan qaraganda, mulkdorlarning xo'jalik faoliyati sarmoya vositasida xo'jalik sohasiga kirish va unda qaror topish orqali kapitalni ko'paytirish uchun amalga oshiriladi. Mulkdor ming monopol bo'lmasin, tanho xo'jalik sub'ekti bo'la olmaydi. U jamiyat va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan munosabatlarda ularning o'zaro hamkorligi va raqobatchiligi sharoitlarida kompleks shaklida takror hosil etiladi.

Mulkdorning butun doirasi ichida jamiyatda ishlab chiqarish vositalariga ega shaxslar guruxini birlashtiruvchi mulkdorlar sinfi muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Mulkdorlar sinfini o'rganish - ushbu hodisaga xos bo'lgan bir qator aniq-ravshan hodisalarni - mulkdorlar sinfini tashkil etuvchi odamlar guruxining tuzilmasi va dinamikasini tadqiq etishni taqoza qiladi. Mulkdorlar sinfining tabaqalanishi mulk sub'ektlari o'zi tomonidan - uning ishlab chiqarish yoki noishlab chiqarish maqsadidagi iste'molni mo'ljallab - odamlarning bir-birlari bilan o'zaro, mulkdorlar sinfiga kirmaydigan shaxslar, guruxlar va qatlamlar ila hamjixatligi shakllari bilan; guruxlar bo'lib qarorlar qabul qilishning usullari,

³ I.A.Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: "O'zbekiston". 1995. 179-bet.

ijtimoiy yo‘l-yo‘riqlar va ayricha dunyoqarashlarni shakllantirish bilan; mulkdorlar sinfini ifodalovchi aniq-ravshan ijtimoiy va iqtisodiy muassasalar va hokazolar bilan belgilanadi.

Mulkdor mulkdan o‘zi tomonidan ham, shuningdek, yollanma asosida boshqa fuqarolarni jalb qilish orqali foydalanishi mumkin. Mulkdor o‘z mol-mulkini xo‘jalik yuritish maqsadida to‘la to‘kis boshqa shaxslarga berishi mumkin, bunda mulkni tasarruf qilish hamda xo‘jalik faoliyati natijasida olingan daromadni taqsimlash tartibini belgilaydi. Mulkdor o‘z mol-mulki darajasida soliq va kredit majburiyatlari, imzolangan shartnomalar ijrosi uchun, boshqa sub’ektlarning mulkiy huquqlari buzilganligi, mehnatning xavfsizlik shartlariga rioya etilmaganligi, odamlar sog‘ligiga zarar keltiruvchi mahsulotlarni sotganlik, atrof muhitni ifloslantirganlik, shuningdek, monopoliyaga qarshi qonunlar buzilganligi uchun javob beradi. Huquqga zid xatti-harakatlar xo‘jalik faoliyatining sud orqali to‘xtalishiga olib kelishi mumkin. Mulkiy da’volar mulk vorislariga ham, lekin merosga qoladigan mulk miqdorida, qo‘llaniladi.

Xo‘jalik yuritish natijalari, agar ular amalga oshirilayotgan tarixiy shakllaridan ajratilgan holda ko‘rib chiqilsa, mazkur natijalar o‘zida ham moddiy-tabiiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy muhitdagi muayyan o‘zgarishlar va yangilanishlarni ifodalaydi. Jamiyat a‘zolarining hayot kechirishi va xo‘jalik sub’ektlari uchun zarur bo‘lgan buyumlar va shart-sharoitlar xo‘jalik yuritish natijalariga aylanadi. Xo‘jalik sub’ektining o‘z ehtiyojlarini qondirishga intilishi uning jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy o‘z-o‘zini qaror toptirishga yo‘naltirilganligida ko‘rinadi. Maqsadga erishish bevosita ishlab chiqarishning turli omillarini, jumladan, ham mulkka egalikni, ham ijtimoiy-iqtisodiy unsurlarini xo‘jalik yurituvchi sub’ekt ehtiyojlariga ijodiy jihatdan muvofiqlashtirishda namoyon bo‘luvchi ijodiy layoqatni rivojlantirish bilan bog‘liqdir.

O‘zbekistonda qonun yo‘li bilan ruxsat etilgan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda mulkdorlarga o‘z mol-mulklaridan foydalanishda, xo‘jalik faoliyatini tashkil etish va uning natijalarini taqsimlashda to‘la erkinlik berilgan. Mehnatning

moddiy va tafakkur qurollari rivojlanishi - odamlar borgan sari ko‘proq ishlab chiqaruvchi mulkdorga aylanish imkoniyatiga ega bo‘layotgani, o‘zaro birlashayotgan tamoyili mavjudligidan dalolatdir. Bu - insonning mulkni sotib olishga va demakki, zo‘ravonlikka qarshi erkinlikka emas, tartibga solingan erkinlikka erishishga bo‘lgan intilishlariga javob beradi.

Bozor munosabatlarining tadrijiy rivojlanishi shunga olib keldiki, mulkdorlar sinfi borgan sari ko‘proq ijtimoiy masalalar bilan shug‘ullanmoqda, mehnatga layoqatli har bir kishi uchun o‘z biznesini yuritish, har bir shaxs o‘z iste’dodini namoyon qilishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. “Bu sinf, - deya ta’kidlagan edi yurt boshimiz, - iqtisodiyotda borinki, mamlakat hayotida muhim o‘rin tutish asosiy tayanch bo‘lishi kerak”⁴.

Ijtimoiy funktsiya xo‘jalik-iqtisodiy faoliyat bilan mustaqil shug‘ullanishga moyil shaxslar qatlamini shakllantirishda namoyon bo‘lmoqda. Bunda yollanma xodimlar qatlamining o‘sib borayotgani ijtimoiy va iqtisodiy jixatdan xususiy mulkdorlar bunyod etgan korxonalarning barqaror faoliyati bilan bog‘liqdir. Ushbu tizimda jamiyat mulkdan va mehnat daromadlaridan olinadigan daromadlarini baravar qo‘llab-quvvatlaydi va rag‘batlantiradi. U samarali soliqqa tortish negizida sudxo‘rlik va chayqovchilik yo‘li bilan kapital to‘planishini rag‘batlantirmasligi, kapitalning tijorat-vositachilik operatsiyalari o‘tkaziladigan sohalardan ishlab chiqarish va ijtimoiy investitsiyalashga qaytishga ko‘maklashish kerak. Bu - milliy iqtisodiyot samaradorligini o‘stirish vazifalarini hal etishga ko‘maklashadi. Shunday qilib, bozor iqtisodiyoti sharoitida mulk munosabatlari soliqqa tortish ob’ekti hisoblanadi. Bu esa bozor iqtisodiyotining mohiyatidan kelib chiqadi. Ya’ni, bozor iqtisodiyoti sharoitida hamma narsa sotiladi va sotib olinadi, bepul narsaning o‘zi yo‘q. Mulk munosabatlarining soliqqa tortilishi O‘zbekitton Respublikasining qonun-hujjatlari bilan tasdiqlab qo‘yilgan. Shunday qilib, mulklarni soliqqa tortishdan asosiy maqsad, bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq

⁴ I.A. Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafalotlari. – T.: “O‘zbekiston”. 1997. 197-bet.

to'lovchilarni o'z egaligida yoki foydalanishida bo'lgan mulklardan optimal foydalanishga soliqlar orqali ta'sir etish.

1.2. Mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati va byudjet daromadlarini shakllantirishdagi o'rni.

Soliqqa tortishga oid jahon fani va amaliyoti shundan dalolat beradiki, mol-mulk soliqlarini vujudga kelishi va rivojlanishi butun tarixi mobaynida uning vaqt chegaralari bilan emas, balki ushbu soliqlarning ahamiyati bilan belgilanuvchi davrlarga shartli ravishda bo'lish mumkin.

Mol-mulk solig'i avvaliga soliqlarning yagona turi bo'lib, amalda daromad solig'i sifatida yuzaga kelgan. Chunki hali daromad soliqqa tortish ob'ekti bo'la olmagandi. Daromad solig'ining joriy qilinishi va u rivojlangan sari mol-mulk soliqlari ikkinchi o'ringa tushib qoladi va go'yo daromad solig'ining qo'shimchasiga aylanadi. Biroq mol-mulkka, daromadning ishonchli va muntazam manbalaridan biri sifatida qaralgan. Mulk egalarining o'zgarishi bilan soliqni undirish usuli ham o'zgarib borgan. Keyinchalik mol-mulk solig'i o'ziga xos maxsus vazifani bajarib, boshqa daromadlarga nisbatan o'zgacha tarzda undirilgan.

Mol-mulklar (ayniqsa uning ko'chmas qismini) soliqqa tortish vaziyatli to'lov (renta) undirish vositasi sifatida namoyon bo'lib, muayyan mulkka egalikning o'zi ushbu mulkdan va mulkdan foydalanishga asoslangan faoliyatdan daromad olish uchun muntazam va o'ta qulay shart-sharotlarni tashkil qilgan.

Soliqlarni o'ylab topishdek o'ta ijodiy jarayondan boshlab XIV asrdayoq, jon boshiga soliq mol-mulk solig'i va kasb-hunar solig'i paydo bo'la boshlagan edi⁵. Mol-mulk solig'i uzoq tarixga ega bo'lib, ular Yunonistonda "eysfora", qadimgi Rimda – "tributum tsivium" tarzida mavjud bo'lgan. Ulardan favquloddalik kasb etgan va harbiy xarajatlarni moliyalashda foydalanilgan. Keyinchalik esa, mol-mulk solig'i davlatning doimiy va muntazam daromad manbaiga aylandi.

⁵ Павлович М.П. Введение в налогообложение основы налогового мышления. –М.: Восход, 1998. стр 66.

Iqtisodchi olim V.Tverdoxlebov umumiy mol-mulk solig'ining ilk shaklini tavsiflab, mol-mulk solig'i atamasi "... mulk va daromad tushunchalari jamiyat hamda qonunchilik bilan shug'ullanuvchi hokimiyat ongida farqlanmagan o'sha davrda hali ko'rtak shaklidagi bevosita soliqlarga to'la mos kelmas edi, chunki mulk va daromad o'rtasidagi munosabat natural daromadning ahamiyati nihoyatda yuqoriligi hamda xo'jalik yuritish davrlari aniq belgilanmaganligi tufayli haddan tashqari noaniq bo'lgan"⁶. Soliq qanchalik daromad solig'i bo'lsa, shunchalik mol-mulk solig'i bo'lib, xo'jaliklarning umumii to'lov imkoniyatiga asoslangan edi. Soliqqa tortish sub'ekti bo'lib, ayrim xo'jalik birligi, ishlab chiqaruvchi, tadbirkor va uy sohibi hisoblanardi.

Tabiiyki, avvaliga jami mol-mulk majmuiga solinadigan soliq mohiyatan yer solig'idan iborat bo'lgan. Bu hol yer va dehqonchilik vositalari, xo'jalik yuritish darajasining ko'rsatkichi sifatida, asosiy boylik (qiymatlik) sanalib xo'jalik farovonligi darajasini belgilagan. Bunda soliqni hisoblab chiqarishda yer maydoni, ba'zan esa, sifati asos qilib olingan.

Sanoat va savdo-sotiq rivojlanishi bilan mol-mulk solig'i amaldagi yer solig'idan mol-mulkning barcha turlariga, ya'ni ko'chma va ko'chmas mulkka solinadigan soliqqa aylandi. Mol-mulkning xilma-xil turlari yuzaga kelishi tufayli soliqqa tortishni tabaqalashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Ko'chma kapitalning paydo bo'lishi barcha mol-mulkni soliqqa tortishni ancha qiyinlashtirdi. Hukumat idoralari mol-mulk va daromadlarni baholash uchun etarli vositalarga ega emasdi, shu bois ayrim ob'ektlarni alohida-alohida soliqqa tortish ularning manfaatiga mos tushardi. Mol-mulk majmuiga solinadigan soliq mol-mulk keltiradigan har xil foydani hisobga ola olmasdi, u daromad keltiradigan va daromad keltirmaydigan mol-mulklarni farqlamasdi.

Bularning hammasi yagona mol-mulk solig'ining parchalanishini va uning yer, mol-mulk, uy va hunar soliqlaridan iborat soliqlar tizimiga aylanishini ko'zda tutardi.

⁶ Твердохлебов В.Н. Финансовые очерки ЧП. СПб. 1916. стр 36.

Mol-mulkni soliqqa tortishning eng ko'xna turlaridan biri yer solig'idir. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek davlatchilik rivojlanishining dastlabki davrlarida mol-mulk soliqlari, qoidaga muvofiq u yoki bu mol-mulkka ega bo'lgan mulkdorning daromadga erishishiga olib kelishi lozim edi. Daromad keltiruvchi asosiy, ba'zan esa yagona manba yer hisoblanardi. Usha paytdagi qishloq xo'jaligi ekinlarining bir turdaligi, ekinlar parvarishining juda oddiyligi sharoitida mulkda bo'lgan yerning umumiy maydoni soliqqa tortilardi.

Buyuk bobokalonimiz, sarkarda A.Temur davridagi soliq tizimida ham yer va mulk soliqlari mavjud bo'lganligini alohida ta'kidlash mumkin. Aynan shu vaqtda xiroj, molu jihat, qo'nalg'a, boj, peshkash, sovari va shilon puli kabi soliqlar amal qilib, bo'lardan "xiroj"- asosiy soliq bo'lib, yerning sharoitiga va yer egasining jamiyatda tutgan ijtimoiy-siyosiy mavqe'iga qarab olingan va hosilning o'ndan bir, to'rt dan bir yoki uchdan bir qismini tashkil etgan bo'lsa, "molu jihat" solig'i (arabcha "mol"-daromad va "jihat"-sabab)- umuman soliq, u pul yoki natura shaklida to'lanishi mumkin bo'lgan⁷.

Ma'lumki, to'g'ri soliqlar iqtisodiy adabiyotlarda soliq to'lovchining mulkiy va ijtimoiy mavqeiga ko'ra shaxsiy va real soliqlarga bo'linadi.

Shaxsiy soliqlar - soliq to'lovchining mulkiy va ijtimoiy ahvoliga bog'liq holda belgilanadigan soliqlar bo'lsa, real soliqlar - soliq to'lovchining moliyaviy ahvolidan qat'iy nazar faoliyat yoki tovarlarga, ya'ni mulk (xususiy mulk)ni sotish, sotib olish, egalik qilishga solinadi. Tarixan real soliqlar, bevosita soliqlarning eng qadimgi ibtidoiy shaklida bo'lgan. Mol-mulk solig'i dastlab asosan real soliqlar shaklida amaliyotda yuzaga kelgan. Bunda, qoidaga ko'ra, mol-mulkning alohida turlari turli soliqlar: yer, mol-mulk uy, xunarmandchilik va pul sarmoyasi soliqlariga tortilgan. Real soliqlar asosida tashqi belgilar yotib, ular yer maydonining miqdori, qurilish qiymati yoki uning ijara to'lovi va boshqalar tashkil qilgan. Real soliqlarda bir xil mol-mulkka ega bo'lgan shaxslar, bir xil miqdorda soliq to'laganlar.

⁷ Temur tuzuklari. -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1996. 14 -bet.

Demak, shaxsiy soliqlar soliq to'lovchi olingan haqiqiy daromaddan to'lanasa, real soliqlarga u yoki bu soliqqa tortish predmeti hisoblangan (ko'chmas mulk)dan muayyan iqtisodiy sharoitlarda olinadigan taxminiy o'rtacha daromad soliqqa tortiladi. Avvalo real soliqlarga mol-mulk soliqqa tortilib, va bundan ularning inglizcha "real" nomi kelib chiqadi.

Taniqli rus tadqiqotchi A. Trivus real soliqlarga quyidagicha ta'rif beradi: "Real soliqlar (u yoki bu ob'ekt - yer, korxona, uy, pul tarzidagi sarmoya to'lovchiga ta'luqliligi omili bo'yicha) soliqqa tortiladigan mulkning aniq belgilari bo'yicha aniqlanadi, bu belgilar amalda to'lovga qobillik haqida emas, balki me'yoriy, "taxmin qilinadigan" to'lovga qobillik to'g'risida fikr yuritish imkonini beradi"⁸.

Demak agar mol-mulkni soliqqa tortish real soliqqa tortish tamoyiliga muvofiq qurilgan bo'lsa, unda har bir alohida olingan mol-mulkning, umumiy soni va hajmi, uning umumiy qiymatidan qat'iy nazar hamda to'lovchining moliyaviy ahvolini hisobga olmasdan soliqqa tortiladi. Shaxsiy belgilar asosida qurilgan mol-mulk solig'ida esa, alohida olingan mol-mulk emas, balki uning umumiy miqdori soliqqa tortiladi. Mol-mulk solig'idan ijtimoiy ehtiyojlarni qondiruvchi mol-mulk ozod qilinish mumkin.

Real soliqqa tortish un to'qqizinchi asrning oxiri va yigirmanchi asrning boshlarida ustivor bo'lib, keng miqyosda qo'llanilgan. Manna shu davrdayoq olimlar uning kamchiliklarini ko'rsatib berdilar. Xususan, olim G.Sadovskiy bu haqda shunday yozadi: "Yer va uy-joy solig'i eng boy sohiblardan ham, na bir qarich yerga va na qurilishning bitta g'ishtiga ham egalik qila olmaydigan shaxslardan ham bir xil hajmdagi foizlarda undirilgan"⁹. Yuqorida sanab o'tilgan kamchiliklar soliq to'lovchining to'lovga qobilligini hisobga oluvchi daromad solig'ining joriy etilishi va rivojlantirilishi hamda unga qo'shimcha mol-mulk solig'i kiritilishi bilan bartaraf etildi.

Real soliqlarni hisoblab chiqarishda odatda mol-mulkning o'rtacha

⁸ Тривус А. Налоги как орудие экономической политики. -Баку: РИО, АСПС 1925. стр.187

⁹ Садовский Г. К вопросу: реальное обложение или личное. СПб. 1910. стр.2.

daromadliligi asos qilib olinadi. Shu bois mulkdorlarni soliqqa tortishdagi bir tekislik kadastrlar (ayniqsa, yer kadastri) tizimiga suyanuvchi yaxshi tashkil etilgan baholashdagina ta'minlanishi mumkin. Buning uchun korxonalar va aholining mol-mulkida kuchli tabaqalanish bo'lmazligi lozim. Bo'lardan tashqari real soliqqa tortishdan mahalliy soliqlar tizimida ko'chmas mol-mulk egalarini, mahalliy xo'jalikni obodonlashtirish ishlariga xarajat qilishdan "qochuvchi"larni keskin soliqqa tortish usuli sifatida foydalanish mumkin. Biroq, shaxsiy soliqlar iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan adolatli hisoblanadi. Bu faqat daromad solig'i (uning shaxsiy soliq sifatidagi mohiyati isbotlangan mol-mulk solig'iga ham taaluqlidir. Korxonalar, aholi turli guruhdarining mulkiy ahvoli bir-biridan keskin farqlangan o'tish davri iqtisodiyotida bu, ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida biz mol-mulk solig'ining nazariy jihatlari bilan tanishib chiqdik. Endi esa uning fiskallik ahamiyati, ya'ni byudjet daromadlarini shakllantirishdagi o'rnini tahlil etsak.

1-jadval

**2012-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti
daromadlarining asosiy ko'rsatkichlari¹⁰**

Ko'rsatkichlar	2012 y	2013 y	2014 y	2015 y (reja)
	jami nis- n, %da	jami nis- n, %da	jami nis- n, %da	jami nis- n, %da
Davlat maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz - jami	100	100	100	100
Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari	13,3	15,0	15,0	15,9
<i>Mol-mulk solig'i</i>	3,1	3,3	3,8	4,7
Yer solig'i	2,2	2,6	2,2	2,6
Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	7,7	8,7	8,6	8,1
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0,3	0,4	0,4	0,5

Jadval ma'lumotlari ko'rinib turibdiki, davlat soliq siyosatining resurslardan samarali va oqilona foydalanishga erishish, davlat byudjeti daromadlarida mol-mulk solig'i rolini oshirishga qaratilganligi natijasida mazkur soliqdan

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlariga ilovalar.

tushumlarning oshib borayoganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘ining salmog‘i 2012 yilda davlat byudjetida 13,3 foizni tashkil etdi. 2013 yilda mazkur ko‘rsatkich 15,0 foizni tashkil etgan. 2014 yilda byudjet daromadlaridagi salmog‘i 15,0 foizni tashkil etdi. 2015 yilda esa mazkur soliqlarning rolini yanada oshirish maqsadida 15,9 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. Bundan tashqari, mol-mulk solig‘ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog‘i foiz ko‘rinishida o‘shish tendentsiyasiga ega. Ya‘ni, soliqdan tushumlar jami byudjet daromadlarida 2012 yilda 3,1 foizni, 2013 yilda 3,3 foizni tashkil etgan holda salmoq ko‘tarilgan, 2014 yilda 3,8 foizni va 2015 yilda esa uning salmog‘i 4,7 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan.

Endi ushbu soliqning tuman mahalliy byudjetidagi rolini aniqlab olish uchun Toshkent shahri Chilonzor tuman mahalliy byudjetiga tushumlar haqidagi ma‘lumotlarga murojaat qilamiz.

2-jadval

Chilonzor tuman mahalliy byudjetida solikli to‘lovlar tushumi¹¹

Ko‘rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2014 yil
	jami nis-n, %da	jami nis-n, %da	jami nis-n, %da
Jami daromadlar	100	100	100
To‘g‘ri soliqlar	56.2	56.2	56.3
Egri soliqlar	28.7	25.8	21.8
Mol-mulk solig‘i va resurs to‘lovlari	7.2	8.2	8.0
Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i	5.2	5.9	6.4
Boshqa daromadlar	2.7	3.9	7.5

Yuqoridagi jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Chilonzor tumani mahalliy byudjeti daromadlar qismini shakllantirishda mol-mulk solig‘i va resurs to‘lovlari alohida ahamiyatga ega.

¹¹ Chilonzor tumani DSI hisobot ma‘lumotlaridan olindi.

Jumladan, ushbu soliqlarning tuman byudjeti daromadlar tushumidagi salmog‘i 2012 yilda 7.2 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2013 yilga kelib 8.2 foizni va 2014 yilda 8.0 foizni tashkil qilmoqda. Bu esa, 2012 yilga nisbatan qaraganda 2014 yilda 0.8 punktga ko‘paygan.

3-jadval

Chilonzor tuman mahalliy byudjetida mol-mulk solig‘idan tushumlar¹²

№	Ko‘rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2014 yil
		jami nis-n, %da	jami nis-n, %da	jami nis-n, %da
1.	Jami daromadlar	100	100	100
2.	Mol-mulk solig‘i, jami	3.2	3.1	3.4
	Yuridik shaxslardan	2.0	1.9	2.1
	Jismoniy shaxslardan	1.2	1.2	1.3

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan izohlash mumkinki, mol-mulk solig‘i tushum summasining absolyut miqdorlari yillar bo‘yicha ortgan bo‘lsada, foizda esa bu ko‘rsatkich kamayish tendentsiyasiga ega. Jumladan, 2012 yilda bu miqdor 3.2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2014 yilga borib 3,4 foizni tashkil etmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mol-mulk solig‘ining umumiy jihat va tomonlarini quyidagi tarzda izohlash mumkin:

- mol-mulk solig‘i tarixiy shakllangan soliqdir;
- mulk munosabatlari soliqqa tortishning ob’ekti sifatida yuzaga chiqishi;
- mol-mulk solig‘i amal qilish mexanizmining alohida ahamiyatga egaligi;
- mol-mulk solig‘ining fiskal ahamiyatining mavjudligi;
- mol-mulk solig‘ini hisoblash tegishli huquqiy hujjatlarga hamda aniq belgilangan imtiyozlardan foydalangan holda amalga oshirilishi.

¹² Chilonzor tumani DSI hisobot ma’lumotlaridan olindi.

II BOB. MOL-MULK SOLIG'INI HISOBLASH VA BYUDJETGA TO'lash MEXANIZMI TAHLILI (Chilonzor tuman DSI ma'lumotlari asosida).

2.1. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash va byudjetga to'lash tartibi tahlili.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxslar uchun 1991 yil 15 fevraldagi "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi Qonun asosida, joriy etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 265-moddasiga muvofiq yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasi hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;

- agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududida o'z mulkida ko'chmas mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasining norezidentlaridir. Agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkoni bo'lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo'lsa, shu shaxs soliq to'lovchidir. O'zbekiston Respublikasi norezidentining faoliyati Soliq kodeksning 20-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasa orqali amalga oshiriladigan faoliyat deb e'tirof etiladi.

Quyidagilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar bo'lmaydi:

- notijorat tashkilotlar. Notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilardir;

- agar Soliq kodeksning XX bo'limida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, ushbu Kodeksga muvofiq soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslar uchun soliq solish ob'ekti bo'lib quyidagi mol-mulklar hisoblanadi:

1) asosiy vositalar, shu jumladan moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar;

2) tugallanmagan qurilish ob'ektlari. Tugallanmagan qurilish ob'ektlari jumlasiga muayyan qurilish ob'ektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo'lsa, qurilish boshlanganidan e'tiboran yigirma to'rt oy ichida qurilishi tugallanmagan ob'ektlar kiradi;

3) belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar. Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar jumlasiga montaj qilinishi talab etiladigan hamda rekonstruktsiya va (yoki) modernizatsiya qilinayotgan ob'ektlarda loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan muddatlarga muvofiq kapital qo'yilmalar hisobiga ishga tushiriladigan asbob-uskunalar kiradi. Loyiha-smeta hujjatlarida asbob-uskunalarni ishga tushirish muddatlari bo'lmagan taqdirda, buyurtmachi sifatida ish ko'rayotgan yuridik shaxsning rahbari tomonidan tasdiqlangan muddatlar soliq solish ob'ektini belgilash uchun qabul qilinadi, lekin bu muddatlar asbob-uskunalar montaj qilishga topshirilgan paytdan e'tiboran bir yildan ko'p bo'lmasligi kerak.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun quyidagilar soliq solish ob'ektidir:

- O'zbekiston Respublikasining norezidentlari buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq doimiy muassasa faoliyati bilan bog'liq qaysi asosiy vositalar bo'yicha hisob yuritayotgan bo'lsa, o'sha asosiy vositalar;

- ushbu doimiy muassasa faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan, mazkur norezidentlarga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan ko'chmas mulk.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirmaydigan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan, ularga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan ko'chmas mulk soliq solish ob'ektidir.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ O'zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan mulk qilib olingan (realizatsiya qilingan) ko'chmas mulk ob'ekti to'g'risidagi ma'lumotlarni ushbu ob'ektlar joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin o'n kun ichida ma'lum qilishi shart.

Qonun hujjatlariga muvofiq mulk qilib olingan yer uchastkalari soliq solish ob'ekti sifatida qaralmaydi.

Soliq kodeksining 267-moddasiga muvofiq yuridik shaxslarning mol-mulki uchun soliq solinadigan baza quyidagilardir:

- asosiy vositalar bo'yicha — asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati. Asosiy vositalarning qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang'ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to'lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya hajmi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi;

- normativ (belgilangan) muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar bo'yicha — tugallanmagan qurilishning va o'rnatilmagan asbob-uskunalarining o'rtacha yillik qiymati.

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining Soliq kodeksining 266-moddasi ikkinchi qismining uchinchi xatboshisida va uchinchi qismida ko'rsatilgan

ko'chmas mulk ob'ektlariga nisbatan ushbu mol-mulkning o'rtacha yillik qiymati soliq solinadigan bazadir.

Soliq solinadigan bazani belgilash tartibi quyidagicha amalga oshiriladi, ya'ni Soliq solish ob'ektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymat) soliq davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish ob'ektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

$$\begin{array}{l} \text{O'rtacha yillik} \quad 31 \text{ yanvar} + 28 (29) \text{ fevral} + \dots + 30 \text{ noyabr} + 31 \text{ dekabr} \\ \text{qoldiq qiymati} \quad = \text{-----} \end{array}$$

12

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining Soliq kodeksning 266-moddasi ikkinchi qismining uchinchi xatboshisida va uchinchi qismida ko'rsatilgan ko'chmas mulk ob'ektlari bo'yicha soliq solinadigan baza mazkur ob'ektlarga bo'lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilgan qiymat asosida aniqlanadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchi tomonidan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash nazarda tutilmagan faoliyat turlari amalga oshirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza soliq solinadigan va soliq solinmaydigan mol-mulk hisobini alohida-alohida yuritish asosida aniqlanadi.

Alohida-alohida hisob yuritish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, soliq solinadigan baza faoliyatdan olinadigan sof tushumning umumiy hajmida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash nazarda tutilgan sof tushumning solishtirma salmog'idan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

2015 yil uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilangan (4-jadval):

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari¹³

<i>No</i>	<i>To'lovchilar</i>	<i>Soliq stavkasi, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da</i>
1.	Yuridik shaxslar	4
2.	O'zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar eksportining (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish joyidan qat'i nazar) erkin almashtiriladigan valyutadagi ulushi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan korxonalar uchun, bundan ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 10 oktyabrdagi PF-1871-son Farmoni bilan tasdiqlangan xom-ashyo tovarlari mustasno*:	
	sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30%ga pasaytiriladi
	sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan yuqori	belgilangan stavka 50%ga pasaytiriladi

Izoh:

**) Belgilangan (me'yoriy) muddatlarda ishga tushirilmagan uskunalar va tugallanmagan qurilish qiymatiga pasaytirilgan stavkalar qo'llanilmaydi.*

Me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan uskunalar uchun mol-mulk solig'i ikki baravar stavkada to'lanadi.

Yuqoridagi keltirilgan formula va stavkadan foydalanib yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining hisob-kitobini tahlil qilamiz. Mol-mulk solig'ining hisob kitobini Chilonzor tumanida faoliyat yuritayotgan "ASL BILLUR" mas'uliyati cheklangan jamiyatining 2015 yil uchun mol-mulk solig'i hisob-kitobini tahlil etamiz (5-jadval).

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrda PQ-2270-son qarori.

**“ASL BILLUR” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2015 yil uchun
mol-mulk solig‘i hisob-kitobi¹⁴**

Ko‘rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Soliq solinadigan asosiy vositalarning, shu jumladan, moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarning taxmin qilinayotgan o‘rtacha yillik qoldiq qiymati	10	8 377 202 517,33
Soliqqa tortiladigan bazaning kamaytirilishi – №4 Yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ining hisob-kitobining 010 satr	20	3 151 750 125,00
Yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblash uchun soliqqa tortiladigan baza (satr. 010 - satr. 020)	30	5 225 452 392,33
Belgilangan soliq stavkasi, %	40	4,00
Tuzatish kiritilgan stavka, % - №6 Yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ining hisob-kitobining 060 satr	50	4,00
Soliq summasi (satr. 030 x satr. 040, libo satr. 050)	60	209 018 095,69
Normativ muddatda tugallanmagan qurilish ob‘ektining soliq solinadigan taxmin qilinayotgan o‘rtacha yillik qiymati №1 Yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ining hisob-kitobining 040 satr	70	0,00
Soliq stavkasi, %	80	0,00
Soliq summasi (satr. 070 x satr. 080)	90	0,00
Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan soliq solinadigan uskunaning taxmin qilinayotgan o‘rtacha yillik qiymati - №1 Yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ining hisob-kitobining 050 satr	100	0,00
Soliq stavkasi, %	110	0,00
Soliq summasi (satr. 100 x satr. 110)	120	0,00
Byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning umumiy summasi (satr. 060 + satr. 090 + satr. 120)	130	209 018 095,69
Soliq davri uchun hisoblangan yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ining joriy to‘lovlar summasi	140	296 000 000,00
Qo‘shimcha to‘lov uchun	150	0,00
Kamaytirish uchun	160	86 981 904,31

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mazkur korxona 2015 yil uchun jami 209 018 095,69 so‘m mol-mulk solig‘ini to‘lashi lozim bo‘lgan, soliq davri uchun hisoblangan yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ining joriy to‘lovlar summasi 296 000 000,00 so‘m to‘lagan. Demak, korxona xisobot davri uchun 86 981 904,31 so‘m kamaytirishi lozim.

Fikrimizni davom ettirgan holda ushbu soliq turidan yuridik shaxslar uchun taqdim etiladigan imtiyozlarni ko‘rib o‘tsak etsak. Yuridik shaxslarning mol-

¹⁴ “ASL BILLUR” mas’uliyati cheklangan jamiyatining yillik hisobot ma’lumotlari.

mulkiga solinadigan soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq solinadigan baza quyidagilarning o'rtacha yillik qoldiq qiymatiga (o'rtacha yillik qiymatiga) kamaytiriladi:

1) kommunal xo'jaligi ob'ektlarining. Kommunal xo'jaligi ob'ektlariga quyidagilar kiradi: vodoprovod tarmoqlari (suv chiqarish inshootlari bilan), kanalizatsiya tarmoqlari (tozalash inshootlari bilan), gaz va issiqlikni taqsimlash tarmoqlari (ulardagi inshootlar bilan), kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun qozonxonalar (shu jumladan asbob-uskunalar);

2) madaniyat va san'at, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot sohasiga kiradigan ijtimoiy-madaniy soha ob'ektlarining;

3) sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari ob'ektlarining;

4) tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan ob'ektlarning. Ob'ektlarni tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadlari va yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan ob'ektlarga kiritish tegishli tabiatni muhofaza qilish yoki davlat yong'in nazorati organining ma'lumotnomasi asosida amalga oshiriladi;

5) umumiy foydalanishdagi temir yo'llar va avtomobil yo'llari, magistral truboprovodlar, aloqa va elektr uzatish liniyalarining, shuningdek ushbu ob'ektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlarning;

6) konservatsiya qilinishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan asosiy ishlab chiqarish fondlarining;

7) soliq to'lovchining balansida bo'lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan, fuqaro muhofazasi va safarbarlik ahamiyatiga molik ob'ektlarning;

8) shahar va shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashiydigan shahar yo'lovchilar transporti tashkilotlari transport vositalarining (avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar, metropoliten poezdlari);

9) tuzilgan shartnomalarga muvofiq yuridik shaxsning buyurtmasi bo'yicha ishlar bajarish uchun kasanachilarga bepul foydalanishga berilgan asbob-uskunalarining (foydalanish davriga);

10) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarining;

11) ko'pi bilan o'n yil davomida ishlatib kelinayotgan mashina va asbob-uskunalarining.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlardan quyidagilar ozod qilinadi:

1) sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya hamda ijtimoiy ta'minot, ta'lim, madaniyat va san'at tashkilotlari;

2) uy-joy-kommunal xo'jaligi va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaligi korxonalari. Uy-joy-kommunal va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaliklari jumlasiga uy-joy fondini bevosita boshqarish, saqlash hamda undan foydalanishni amalga oshiruvchi tashkilotlar, sanitariya tozalash va yig'ishtirish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, shaharlar hamda shaharchalarni tashqi yoritish, vodoprovod suv olish inshootlaridan, taqsimlanadigan tarmoqlardan (tozalovchi inshootlari bilan) foydalanish va suvni taqsimlash, kanalizatsiya tarmoqlaridan foydalanish (tozalash inshootlari bilan), gaz taqsimlanadigan tarmoqlardan foydalanish hamda gazni taqsimlash, qozonxona, issiqlik taqsimlanadigan tarmoqlardan foydalanish va kommunal-maishiy ehtiyojlarga hamda aholiga issiqlikni taqsimlashni bevosita amalga oshiruvchi tashkilotlar, xizmat binolarining xo'jalik boshqarmalari, o't o'chirish komandalari, uy-joy-kommunal xo'jaligining xo'jalik boshqarmalari, uy-joy-kommunal xo'jaligi va shahar xo'jaligining umumfuqaroviy ahamiyatga molik boshqa korxonalari kiradi;

3) yangi tashkil etilgan korxonalar — davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida. Mazkur imtiyoz qayta tashkil etilgan yuridik shaxslar negizida tashkil etilgan korxonalarga, shuningdek boshqa korxonalar hududida shu

korxonalardan ijaraga olingan asbob-uskunalaridan foydalangan holda o'z faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi;

4) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektlarini — yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish Soliq kodeksi 267-moddasining birinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda soliq to'lovchi — O'zbekiston Respublikasining rezidenti tomonidan amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. Agar ko'chmas mulk soliq to'lovchining soliq bo'yicha hisobga olish joyida joylashmagan bo'lsa, hisob-kitob ko'chmas mulk joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi.

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlar to'laydilar.

Joriy to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davrining 10 yanvarigacha, yangi tashkil qilinganlari esa davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay, davlat soliq xizmati organlariga mo'ljallanayotgan soliq solinadigan bazadan (tegishli yil uchun mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan (o'rtacha yillik qiymatidan) va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadilar. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan

soliq bo'yicha majburiyatlari soliq davrida yuzaga kelgan soliq to'lovchilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadilar.

Soliq kodeksining 271-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan joriy to'lovlar quyidagicha to'lanadi:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining to'rt dan bir qismi miqdorida yilning har choragi uchinchi oyining 25-kunidan kechiktirmay;

- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida har oyning 10-kunidan kechiktirmay.

Soliq davri mobaynida mo'ljallanayotgan soliq solinadigan baza o'zgargan taqdirda soliq to'lovchi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotnoma taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun joriy to'lovlarga yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning o'zgarish summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davrida to'lanishi lozim bo'lgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi joriy to'lovlar hisobga olingan holda, hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay byudjetga o'tkaziladi.

Soliq davrida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlar summasi hisob-kitobga ko'ra byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to'lovlarni yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisoblab chiqadi.

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq solinadigan bazadan va

belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda davlat soliq xizmati organlari tomonidan quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidenti doimiy muassasaning soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga soliq solinadigan mavjud mol-mulk to‘g‘risidagi ma’lumotnomani hisobot yilidan keyingi yilning 25 yanvaridan kechiktirmay taqdim etishi shart. Taqdim etilgan ma’lumotnoma asosida davlat soliq xizmati organi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi hisob-kitobini o‘n kun ichida amalga oshiradi va to‘lov xabarnomasini yozib beradi;

- O‘zbekiston Respublikasining ko‘chmas mulkka ega bo‘lgan norezidentlariga ko‘chmas mulk joylashgan yerdagi O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari soliq to‘lovchining yoki ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organning ma’lumotlari asosida to‘lov xabarnomasini yozib beradi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan yilda bir marta, soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15 fevralidan kechiktirmay to‘lanishi kerak.

2.2. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash va byudjetga to‘lash tartibi tahlili.

Jismoniy shaxslar to‘laydigan mol-mulk solig‘ini nazariy jihatdan tadqiq etish va ushbu soliqni soliq-byudjet tizimidagi rolini oshirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, aholining mazkur soliq xususidagi fikrlarining ijobiy bo‘lishini ta’minlaydi.

Hozirgi kunda respublikamizda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mahalliy byudjetga undiriladigan asosiy soliqlardan biri

hisoblanadi. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i mahalliy byudjet daromadlarini doimiy shakllantirib turuvchi barqaror manba bo'lganligi uchun undiriladi.

U fiskal funktsiyani bajarib, davlat byudjeti daromadlarini to'ldiradi. Shunday qilib bu soliqning ahamiyati davlat byudjetining manfaatdorligidadir.

Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ining yana bir ustun jihati shundaki, bu uning soliq bazasining identifikatsiyasi bilan bog'liq, ya'ni soliq ob'ektining qat'iyligidadir.

Shuning uchun ham mol-mulkni soliq to'lashdan qochish maqsadida yashirish qiyin va soliqqa tortish maqsadida uni qiymatini aniqlash egasining xoxishidan kelib chiqmaydi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq - bu bevosita soliq bo'lib, u o'zining ushbu sifati bilan moddiy boyliklarni olish va jamg'arish jarayonida undiriladi.

Bu real ("real" atamasi inglizcha "real" - mulk) soliqdir, ya'ni ushbu soliq birinchi galda fuqaro egalik qiladigan mol-mulkga solinishi bilan bog'liq. Shaxsiy soliqdan farqli ravishda real soliq to'lovchining haqqoniy daromadiga emas, balki soliq solinadigan u yoki bu predmetdan, masalan, ko'chmas mulkdan olinishi mo'ljallanayotgan o'rtacha daromadga solinadi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq muntazam soliq hisoblanadi, ya'ni u yarim yilda bir marta muntazam ravishda undiriladi.

Nihoyat bu hududiy soliq bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan va unda ro'yxatga olingan ko'chmas mulk uchun to'lanadi. Mol-mulk solig'i mutanosib (proportsional) va shedulyardir.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni huquqiy tartibga solishning asosiy manbalariga O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 29 dekabrda 478-sonli "Jismoniy shaxslarga mulk huquqida tegishli bo'lgan bino va inshootlarni baholash va qayta baholash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Davlat Soliq Qo'mitasining 2002 yil

16 yanvardagi 16, 2002-19-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va byudjetga to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi yo‘riqnomasi (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 5 martdagi 1103-raqami bilan ro‘yxatga olingan) kiradi.

Ilgari ushbu soliqni undirib olinishi 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan “Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinar edi.

Quyida jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini tahlil qilamiz.

6-jadval

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarida mol-mulk solig‘ining salmog‘i dinamikisi¹⁵

Ko‘rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2014 yil
Jami daromad (foizda)	100	100	100
Mol-mulk solig‘i	3,4	3,8	4,0
Shu jumladan:			
Yuridik shaxslar mol-mulk solig‘i;	1,95	2,18	2,2
Jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘i.	1,45	1,62	1,8

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mol-mulk solig‘ining davlat byudjeti jami daromadlaridagi ulushi ancha kam. Mol-mulk solig‘ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog‘i yillar bo‘yicha tahlil qilinganda 2012 yilda 3,4 foizni, 2013 yilda 3,8 foizni va 2014 yilda 4,0 foizni tashkil etganini kuzatishimiz mumkin. Shundan jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining salmog‘i 2012 yilda 1,45 foizni, 2013 yilda 1,62 foizni va 2014 yilda esa 1,8 foizni tashkil etgan. Buning sababi yildan-yilga soliq stavkasining o‘sishi va soliq to‘lovchilarning soni ko‘payishi bilan izohlanadi.

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Boshqa soliq turlari singari jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ini mavjud mexanizmini nazariy jihatdan tahlili bu soliq turini undirishni yanada takomillashtirilishi lozim degan hulosani chiqarishga imkon beradi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda soliqqa tortishning umumiy rivojlanish tamoyillari soliqlar sonini qisqartirish, mol-mulkdan olinadigan soliqlar rolini oshirish, soliq majburiyatlarini asta-sekinlik bilan korxonalar zimmasidan jismoniy shaxslar zimmasiga o'tkazish zarurligiga asoslanadi. Bu tamoyillar ko'p yillik taraqqiyot jarayonida vujudga kelgan.

O'zbekiston byudjet daromadlari shakllantirilishida mol-mulk solig'ining miqdori va o'rni hozircha unchalik yuqori emas.

Birinchidan, bu soliqlar mukammal xarakterga ega bo'lmagani uchun ularga etarli e'tibor berilmagan.

Ikkinchidan, jismoniy shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliq mahalliy byudjetlarning daromadini tashkil etadi.

Mulkida soliq solinadigan mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilaridir.

Agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkoni bo'lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo'lsa, o'sha shaxs soliq to'lovchidir.

Soliq kodeksiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy-joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar soliq solish ob'ektidir.

Bundan tashqari, 2002 yil 1 yanvargacha jismoniy shaxslarning mulki bo'lgan avtomobillar, motorli qayiqqlar, vertolyotlar, samolyotlar va boshqa transport vositalari dvigatellarining quvvati soliq solish ob'ekti bo'lib hisoblangan.

Lekin, 2002 yil 1 yanvaridan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 31 dekabrda "Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va 2002 yilgi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining parametrlari to'g'risida"gi 490-son qaroriga muvofiq jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz iste'moliga solig'i joriy etildi.

Umuman olganda, "soliq solish ob'ekti" va "soliq solish predmeti" tushunchalarini farqlash zarur. Bu farq ayni jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliqqa nisbatan yanada yaqqol namoyon bo'ladi, u soliqning sub'ektini aniqlaydi va u bilan ma'lum huquqiy aloqada jumladan mulk huquqiy munosabatlarda bo'ladi. Shunga e'tiborni qaratamizki, Soliq kodeksida farqli o'laroq, shunday belgilanadi, soliq "o'z ixtiyorida ega bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi".

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 29 dekabrda 478-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Jismoniy shaxslarga mulk huquqida tegishli bo'lgan bino va inshootlarni baholash va qayta baholash to'g'risida"gi nizamning 4-bandida shunday deyiladi: "Foydalanish uchun qabul qilingan va mahalliy texnik ro'yxatdan o'tkazish idorasida ro'yxatga olingan, jismoniy shaxslarga mulk huquqida tegishli bo'lgan uy-joylar, kvartiralar, bog'dorchilik va uzumchilik shirkatlari a'zolarining chorbog' va bog' uylari, garajalar va boshqa imoratlar, binolar va inshootlar soliq solish uchun baholash ob'ekti hisoblanadi".

Soliq solish ob'ekti - bu sub'ektning soliq to'lash majburiyatini shart qilib qo'yuvchi yuridik dalillardir (mazkur holatda mulkchilik huquqida mol-mulkka egalik qilish bunday yuridik dalil hisoblanadi).

Soliq solish predmeti (atama mazmuniga ko'ra soliq solish ob'ektiga yaqin) - bu tegishli soliqning undirilishini asoslab beruvchi daliliy hususiyatdagi belgilardir. Masalan, uy, kvartira kabi mol-mulk uchun mulkchilik huquqi ob'ekti bo'ladi, uy yoki kvartiraning o'zi esa soliq solish predmeti hisoblanadi va h.k.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 29 dekabrda 478-sonli qaroriga muvofiq jismoniy shaxslarga mulk huquqida tegishli bo‘lgan uy-joylar, kvartiralar (shu jumladan xususiy lashtirilgan kvartiralar), garajlar, boshqa imoratlarni bahaolash va qayta baholash uchun yagona funktsional ko‘rsatkich-imorat, bino umumiy maydonning kvadrat metri belgilanadi. Bu esa soliq solish birligidir.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 93-moddasi soliq bo‘yicha imtiyozlarga ega bo‘lgan shaxslar doirasini tartibga soladi. Uning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, qonun chiqaruvchi har qanday mol-mulk solig‘idan ozod etiladigan jismoniy shaxslarning qator toifalarini ajratadi, jismoniy shaxslarning boshqa guruhlariga esa, faqat imoratlar, binolar va inshootlar uchun soliq to‘lash bo‘yicha imtiyozlar berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat Soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan “Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqish va byudjetga to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi yo‘riqnomaga muvofiq jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘ini hisoblash soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq kodeksning 272-moddasiga asosan mulkida soliq solinadigan mol-mulki bo‘lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to‘lovchilaridir.

Agar ko‘chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkoni bo‘lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo‘lsa, o‘sha shaxs soliq to‘lovchidir.

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy-joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar soliq solish ob’ektidir.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish ob'ektlarining inventarizatsiya qiymati to'lovchilar uchun soliq solinadigan bazadir.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish ob'ektining bahosi mavjud bo'lmagan taqdirda, mol-mulkning qonun hujjatlari bilan belgilanadigan shartli qiymati soliq solinadigan bazadir.

Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish ob'ekti bo'yicha to'lovchi bo'lgan taqdirda, soliq solinadigan baza har bir ob'ekt bo'yicha alohida-alohida hisoblab chiqiladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i stavkasini har yili kelgusi moliya yili uchun O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti parametrlari va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tasdiqlangandan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadi. 2014-2015 yillari uchun jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ining quyidagi stavkalari belgilangan:

7-jadval

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari¹⁶

N	Soliq solinadigan ob'ektlarning nomi	Soliq stavkasi, mol-mulkning inventarizatsiya qiymatiga nisbatan %da	
		2013 yil	2014 yil
1.	Turar joylar, kvartiralar (shaharlarda joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan oshiq bo'lganlari bundan mustasno), dala hovli qurilmalari, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar	1,2	1,3
2.	Shaharlarda joylashgan umumiy maydoni quyidagicha bo'lgan turar joylar va kvartiralar:		
	200 kv.m dan oshiq va 500 kv.m gacha bo'lgan	1,4	1,6
	500 kv.m dan oshiq bo'lgan	1,8	2,2

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrda PQ-2099-son va 2014 yil 4 dekabrda PQ-2270 son qarorlariga ilova.

Izoh:

1. Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash bo'yicha organlar belgilagan inventarizatsiya qiymati bo'lmasa, soliq undirish uchun Toshkent shahri va viloyat markazlarida 2014 yilda 18 480,0 ming so'm bo'lsa, 2015 yilda 20 328,0 ming so'm, boshqa shaharlar va qishloq joylarda – 2014 yilda 8 030,0 ming so'm bo'lsa, 2015 yilda 8 833,0 ming so'm miqdorida mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

Mol-mulkka bo'lgan huquqni ro'yxatdan o'tkazuvchi organlarda belgilangan tartibda ro'yxatga olinmagan yangi qurilgan turar joylar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mol-mulk shartli qiymatining ikki baravari miqdoridan kelib chiqib undiriladi.

2. Soliq solinadigan mol-mulkka egalik qiladigan pensionerlar uchun mol-mulk solig'i bo'yicha soliq solinmaydigan maydon umumiy maydonning 60 kv.m hajmida belgilanadi.

3. Jismoniy shaxslar tomonidan soliq solinadigan ob'ektlardan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda yoxud ularni yuridik shaxslarga yoki yakka tartibdagi tadbirkorlarga ijaraga berilganda shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan turar joy fondi ob'ektlari noturar joy fond toifasiga o'tkazilganda yoki ular tomonidan noturar joy fondi ob'ektlari (binolar, binodagi xonalar) mulk sifatida xarid qilinganda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi.

Soliq kodeksning 275-moddasiga asosan quyidagilarning mulkida bo'lgan mol-mulkka jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq solinmaydi:

1) “O‘zbekiston Qahramoni”, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning. Mazkur imtiyoz tegishincha “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning ma'lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslarning. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'limining yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) o'n nafar va undan ortiq bolalari bor ayollarning. Mazkur imtiyozni berish uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining bolalar borligini tasdiqlovchi ma'lumotnomasi asos bo'ladi;

4) pensionerlarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi asosida beriladi;

5) I va II guruh nogironlarining. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

6) sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilar hamda ichki ishlar organlari xodimlari otalarining va beva xotinlarining (beva erlarining). Imtiyoz "Halok bo'lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)" yoki "Ichki ishlar organlari halok bo'lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)" shtampi qo'yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergan muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi. Agar mazkur shaxslar pensioner bo'lmasa, imtiyoz ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo'mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati yoxud Ichki ishlar vazirligining tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organi xodimining halok bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma asosida beriladi. Sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yoki frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning yoxud ichki ishlar organlari xodimlarining beva xotinlariga (beva erlariga) imtiyoz faqat ular yangi nikohdan o'tmagan taqdirda beriladi.

Ushbu modda birinchi qismining 3, 5 va 6-bandlarida ko'rsatilgan imtiyozlar qonun hujjatlarida belgilangan soliq solinmaydigan maydon (60 kv.m) o'lchami doirasida beriladi.

Ushbu moddada belgilangan imtiyozlar mulkdorning tanlashiga binoan faqat bir mol-mulk ob'ektiga taalluqli bo'ladi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan imtiyozlar jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilgan soliq solish ob'ektlariga nisbatan qo'llanilmaydi.

Soliq solish ob'ektlari jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilgan yoxud ular yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilgan taqdirda, shuningdek jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan yashash uchun mo'ljallanmagan joylar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq to'lovchining yashash joyidan qat'i nazar, soliq solish ob'ekti joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ soliq solish ob'ekti joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga har yili 1 fevralgacha ob'ektning 1 yanvarga bo'lgan holatiga ko'ra inventarizatsiya qiymatini va uning mulkdorini ko'rsatgan holda ma'lumot taqdim etadi.

Yuqorida ko'rsatilgan imtiyozlarni olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar imtiyozlarni olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni mustaqil ravishda taqdim etadilar.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi mol-mulkning 1 yanvarga bo'lgan holatiga ko'ra inventarizatsiya qiymatidan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Bir nechta mulkdorning umumiy ulushli mulkida bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mulkdorlarning har biri tomonidan ularning ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to'lanadi.

Mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi kalendar yil mobaynida bir mulkdordan boshqasiga o'tgan taqdirda, jismoniy shaxslarning mulkiga solinadigan soliq avvalgi mulkdor tomonidan shu yilning 1 yanvaridan e'tiboran u mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini yo'qotgan oyning boshlanishiga qadar, yangi mulkdor tomonidan esa unda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.

Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq ular barpo etilgan yildan keyingi yil boshidan e'tiboran to'lanadi.

Meros bo'yicha o'tgan mol-mulk uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq merosxo'rlarda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.

Soliq solish ob'ekti yo'q qilingan, vayron bo'lgan, buzib tashlangan taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni undirish mol-mulk yo'q qilingan, vayron bo'lgan yoki buzib tashlangan oydan e'tiboran to'xtatiladi. Soliq summasini qayta hisob-kitob qilish mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan berilgan yo'q qilinganlik, vayron bo'lganlik, buzib tashlanganlik faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda, amalga oshiriladi.

Kalendar yil mobaynida imtiyoz huquqi vujudga kelgan (amal qilishi tugagan) taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan (amal qilishi tugagan) oydan e'tiboran amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi soliq to'lovchilarga davlat soliq xizmati organi tomonidan har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni soliq davri uchun to'lash hisobot yilining 15 oktyabriga qadar amalga oshiriladi.

**Chilonzor tuman hududida jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan
solig to'lovchilarini hisobga olinishi va soliqqa tortilishi¹⁷**

Tuman nomi	01.01.2014 yilda jami hisobga olinganlar soni	01.01.2015 yilda jami hisobga olinganlar soni	Imtiyoz berilgan ob'ektlar			Soliqqa tortilgan ob'ektlar soni		
			xo'jalik soni	mulk qiymati (mln. so'm)	solig summasi	xo'jalik soni	mulk qiymati (mln. so'm)	solig summasi
Chilonzor	48320	48575	19974	31864.1	159320.5	28601	37428.2	187141.0

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Chilonzor tumanida 2013 yil 1 yanvar holatiga ko'ra jami hisobga olingan xo'jaliklar soni 48575 tani tashkil etmoqda. Shundan, imtiyozga ega bo'lgan mulklar soni 19974 tani tashkil etgan holda, mol-mulk solig'ining summasi esa mazkur ob'ektlar bo'yicha 31864.1 mln. so'mni tashkil etmoqda. Soliqqa tortiladigan xo'jaliklar soni 28601tani tashkil etgan holda, mol-mulk solig'ining summasi 159320.5 mln. so'mni tashkil etmoqda.

Quyida keltirilayotgan jadvalda Toshkent shahar Chilonzor tuman hududida 2015 yil 1 yanvar holatiga ko'ra jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan imorat va inshootlarning hisobga olinishi va texnik inventarizatsiyalashning hududiy kadastr byurolari (TIHKB) tomonidan baholanishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan:

Chilonzor tuman hududida jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan imorat va inshootlarning hisobga olinishi va TIHKB tomonidan baholanishi¹⁸

Tuman nomi	Jami hisobga olingan mulklar soni	Shundan, TIHKB tomonidan baholanangan (mln.so'mda)	Uy-joy		Xonadonlar		Garajlar	
			Hisobga olinganlar soni	TIHKB tomonidan baholanangan	Hisobga olinganlar soni	TIHKB tomonidan baholanangan	Hisobga olinganlar soni	TIHKB tomonidan baholanangan
Chilonzor	49758	69292.3	6998	6998	41006	41006	1183	1183

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, Chilonzor tumanida 2015 yil 1 yanvar holatiga ko'ra jami hisobga olingan mulklar soni 49758 tani tashkil etmoqda. Shundan, uy-joylar soni 6998 tani, xonadonlar soni 41006 tani, garajlar soni 1183 tani va do'konlar, oshxonalar va boshqa qurilmalar 571 tani tashkil etmoqda.

¹⁷ Chilonzor tuman DSI ma'lumotlari.

¹⁸ Chilonzor tuman DSI ma'lumotlari.

III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA QILISH SHAROITIDA MOL-MULK SOLIG'INI HISOBLASH VA BYUDJETGA TO'LASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.

3.1. Mol-mulk solig'ini amal qilish mexanizmining xorijiy davlatlar tajribasi.

Rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimi turli iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy shart-sharoitlar ta'siri ostida shakllanish xarakteriga ega. Bu mamlakatlarda soliqqa tortish tizimi, soliqlarning turi, ularning tarkibiy tuzilishi, soliqqa tortish usuli, stavkalari, soliqqa tortish bazasi va soliq imtiyozlari berilishi qoidalalariga asosan hukumatning turli darajalardagi fiskal vakolatlariga qarab bir-biridan tubdan farq qiladi va quyidagi umumiy xususiyatlarga ega:

- byudjetga tushadigan soliq daromadlarini oshirib borish yo'llarini qidirish;
- soliqqa tortishda umumiy tizim bo'lgan adolatlilik tamoyiliga rioya qilish;
- iqtisodiyot qonun qoidalaridan kelib chiqqan holda soliq tizimini ishlash mexanizmini tashkil etish.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda amal qiluvchi mol-mulk solig'i bo'yicha tajribasini o'rganish sabablari quyidagicha:

Birinchidan, soliqqa tortishning bu turidan rivojlangan mamlakatlarda uzoq vaqt, unga xos bo'lgan fiskal va iqtisodiy vazifani bajarish uchun foydalanib kelinmoqda;

Ikkinchidan, rivojlangan mamlakatlarda amal qiluvchi mol-mulk solig'i mexanizmlarini aynan qabul qilmay, balki mamlakatimizda ular tajribasidagi eng ilg'or tomonlarni qo'llash zarur.

Mulk solig'i bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar soliq tizimining tabiiy elementlari hisoblanadi. Ular, qoida bo'yicha, mahalliy byudjetga tushadi va bunday darajadagi byudjetlar soliq manbalarida beqiyos salmoqqa ega. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda mulkni soliqqa tortish quyidagi

soliq guruhlari yordamida amalga oshiriladi: shaxsiy mulk solig'i, meros va hadya solig'i, kapitalning o'sishiga soliq va mulkning ayrim turlari (yer, bino va inshootlar) soliqlardan iborat.¹⁹

Rivojlangan mamlakatlarda soliqlarning quyidagi asosiy shakllari mavjud: jismoniy shaxslar daromad solig'i, yuridik shaxslar daromad solig'i, oborot solig'i yoki QQS, ijtimoiy sug'urta fondlariga ajratmalar, iste'mol soliqlari, mol-mulk solig'i, yer solig'i, meros va sovg'aga soliq va boshqalar.

Bu mamlakatlarda mulkni soliqqa tortish asosan ikki soliq yo'nalishida: mulkning umumiy summasiga soliq solish va mulkning alohida turlariga soliqlar asosida amalga oshiriladi. Mulkning umumiy summasiga soliq o'z navbatida jismoniy shaxslarning shaxsiy mulkiga soliq va yuridik shaxslar mol-mulk soliqlariga bo'linadi. Mol-mulkka solinadigan barcha soliqlar hududiy yoki mahalliy soliqlarga taalluqli ammo, undirish chegarasi ko'p hollarda markaziy darajada belgilanadi. Maxsus mol-mulk soliqlari tarixan saqlanib qolgan soliqlar hisoblanadi. Bu soliqlarning jami soliq tushumlaridagi ulushi rivojlangan mamlakatlarda qattiq farq qiladi. Agar Buyuk Britaniyada ushbu ulush 10%dan oshig'ini tashkil etgan bo'lsa, Belgiya, Gretsiya, Avstriya, Italiya, Lyuksemburg, Turkiya, Finlyandiya, Shveytsariya, Shvetsiya, Ispaniyalarda ular 1%dan oshadi. Mulkning alohida turlariga soliqlari bo'yicha yuqori tushumli davlatlarga AQSh (9%dan yuqori), Kanada (8%dan yuqori), Yangi Zelandiya (6% atrofida), Avstraliya (deyarli 5%), Irlandiya (2,5%), Frantsiya (2% atrofida) kiradi.²⁰

Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'iga tortishda inshoot va imoratlarning qurilish materiallari, hajmi va foydalanish maqsadlaridan kelib chiqqan holda soliqqa tortish shartlari o'zgarishi mumkin. Albatta, bu borada aholining yashash joylari va iqtisodiy faoliyat ob'ektlariga tegishli binolarni soliqqa tortish shartlari sezilarli farq qiladi.

¹⁹ Налоги и налогообложение: Учебн. пособие для вузов/И.Г. Русакова, В.А. Толкушкин и др.; Под ред. И.Г. Русаковой, В.А. Кашина. - М.: Финансы, ЮНИТИ, 1990. - 495 с. (1926)

²⁰ А.В.Перов, А.В.Толкушкин, Налоги и налогообложение. Учебное пособие, 2-е изд., перераб. и допол. Москва – ЮРАЙТ, 2003. 87 с.

Mulkiy soliqlar ichida ko'chmas mulk uchun soliq asosiy soliqlardan biri bo'lib, bu soliqqa yer uchastkalari va imoratlar tortiladi. Bu soliq stavkalari unchalik yuqori bo'lmaydi va odatda shunday mulk qiymatining 1,0–3,0%ini tashkil etadi. Ba'zi mamlakatlarda shuningdek, mulkning umumiy summasiga solinadigan soliq ham bo'ladi, unga faqat yirik mulk tortiladi, chunki ushbu soliq borasida soliq solinmaydigan yuqori darajali minimum ko'zda tutilgan. Soliqqa tortiladigan ob'ekt tarkibiga yer uchastkalari va imoratlardan tashqari, kompaniyalarning aktsiyalari paketlari, individual (yakka) tadbirkorlarning aktivlari va tovar zaxiralari, uchinchi shaxslar qarzdorligi va shu kabilar ham kiritiladi. Soliq stavkalari asosan 1,0–2,0%ni tashkil etadi.

Ma'lumki Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qarshi chora tadbirlarni amalga oshirishda soliq islohotlarini amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan biz tahlil qilayotgan mol-mulk soligi Yevropa Ittifoqining ayrim davlatlarida qayta ko'rib chiqilishi oqibatida, shuningdek iqtisodiy inqirozni bartaraf etish choralari sifatida jismoniy shaxslarning daromad manbalariga tug'ridan-tug'ri ta'sir etuvchi daromad solig'i stavkalarini yanada kamaytirish siyosati amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqi Komissiyasi tomonidan qayd etilganidek, mol-mulk solig'i aholining jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i stavkasini pasaytirish imkoniyatini beruvchi bir qancha ipoteka xizmatlaridan biri bo'lmish mol-mulkni shaxsiy qarzdorlik evaziga sotib olinishining rag'batlantirilishini o'z ichiga oladi. Mazkur rag'batlantirishlar amalda aholining qarzdorlik ko'rsatkichlarini pasayishida, mol-mulk narxlarining oshishida hamda mamlakatning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Evropa Ittifoqi mamlakatlarida mol-mulk soliqlari Frantsiya, Daniya, Ispaniya, Lyuksemburg, Nidderlandiya, Shvetsariya, Norvegiya, Islandiya, Shvetsiya, Finlyandiya, Lixtenshteyn davlatlarida undiriladi. Ayrim mamlakatlarda esa, masalan Frantsiya va Niderlandiyada mol-mulk soliqlari faqat jismoniy shaxslarga solinadi. Evropadan tashqarida esa, mol-mulk soliqlari AQSh,

Yaponiya, Isroil, Indoneziya, Koreya hamda Janubiy Amerikaning ba'zi davlatlarida undiriladi.

Xususan, AQShda mol-mulk solig'ini yuridik va jismoniy shaxslar to'laydilar. Yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq ko'pchilik shtatlarda undiriladi. Soliq stavkalari shtatlar bo'yicha farqlanadi. Ko'chmas mulkni baqolash bilan shug'ullanadigan soliq idorasi xizmatchilari soliq baholovchilari deb nomlanadilar. Soliq baholovchilari tarkibiga nafaqat soliq inspektorlari, balki texnik nazorat idorlari xodimlari ham kiritiladi. Mol-mulk solig'i tushumlari hokimiyat tuzilmalarining barcha darajadagi soliq tushumlarining sal kam 9,0%ini tashkil etadi. AQShda mol-mulk soliqlari shtat va munitsipalitet darjasida undiriladi. Bu soliqqa asosan ko'chmas mulk va xo'jalik uskunalari tortiladi, foyda ko'rmaydigan tashkilotlarga tegishli bo'lgan va ular tomonidan tijorat maqsadlarida foydalanilmaydigan mol-mulk bundan mustasno. Shuningdek federal hukumat, shtatlar hukumatlari va mahalliy hokimiyat organlarining mol-mulki ham soliqqa tortilmaydi. 13 ta shtatda nomoddiy aktivlar: aktsiyalar, qarz majburiyatlari va shu kabilar soliqqa tortiladi. Fuqarolarga tegishli bo'lgan shaxsiy ko'chmas mulk va ishlab chiqarish vositalari ham soliqqa tortiladi. Shtat darajasida quyidagi soliq stavkalari: korporatsiya kapitalining 0,75%i miqdorida va yuridik hamda jismoniy shaxslarning soliqqa ttatiladigan mol-mulkiga 0,5dan 5,0%gacha miqdorda belgilangan. Bundan tashqari, munitsipalitet darajasida ham soliq undiriladi. Barcha mol-mulk soliqlari har qanday darajada daromad solig'iga tortiladigan daromadni hisoblab chiqarishda chegiriladi.

Buyuk Britaniyada yuridik va jismoniy shaxslarning ko'chmas mulkiga solinadigan soliq mahalliy byudjetni shakllantiruvchi asosiy soliqlardan biri hisoblanadi. Renta to'lovi soliq asosi bo'ladi. U ko'chmas mulk egalari yoki uni ijaraga oluvchmlardan undiriladi. Xullas, mol-mulk solig'i to'lovchilari bo'lib, mulk egalari yoki ishtirokchilari hisoblanadi. Ko'chmas mulk deganda yer tushuniladi. Shuningdek, ushbu soliq to'lovchilari qatoriga uy-joyni ijaraga oluvchilar hamda kvartira haqini to'lovchilar ham kiradi.

Frantsiya byudjetida mol-mulkdan soliq yuqori salmoqqa ega. Bu soliqqa mol-mulk, mol-mulk huquqi va qimmatbaho qog'ozlar tortiladi. Mol-mulk tarkibiga binolar, sanoat va qishloq xo'jalik korxonalari, harakatlanuvchi mulk, aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqalar kiradi. Shunisi diqqatga sazovorki, Frantsiyada ba'zi mol-mulk ushbu soliq turidan qisman yoki to'liq ozod etilgan. Shular jumlasiga professional faoliyat doirasida foydalanish uchun mo'ljallangan mol-mulk, qishloq xo'jaligiga oid ba'zi mol-mulk turlari, tarixiy yodgorlik buyumlar, badiiy va kolleksiya buyumlari kiradi.

Germaniyada shaxsiy mulk solig'i tarixiy an'anaga egadir. Bu soliqni 1278 yilda qirol Rudolf fon Gabsburg joriy qilgan. Jismoniy shaxsning umumiy mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 1955 yil 1 yanvaridan boshlab 1%ga qadar ko'tarildi. Unga qadar soliq stavkasi 0,5 foiz darajasida edi. Sanoat korxonalari va kompaniyalari uchun 0,6 foiz soliq stavkasi belgilangan. Qishloq va o'rmon xo'jaligi mulki pasaytirilgan soliq summasi ko'rinishidagi imtiyozlarga ega.

Kunchiqar davlat Yaponiya soliq tuzimida mol-mulk solig'i alohida o'ringa ega bo'lib, yirik uch guruh soliqlardan birini, ya'ni mol-mulk solig'i guruhini tashkil qiladi. Yaponiyada bu soliqni bizning mamlakatdan farqli o'laroq ham yuridik, ham jismoniy shaxslar bir xil stavkada to'laydilar. Odatda bu mol-mulk qiymatining 1,4%ini tashkil qiladi. Mol-mulkni qayta baholash 3 yilda bir marta o'tkaziladi. Soliqqa tortiladigan ob'ektga barcha ko'chmas mulklar, yer, qimmatbaho qog'ozlar, bank depozitlari bo'yicha foizlar kiradi. Soliq shuningdek, mulk bir egadan boshqasiga o'tgan vaqtida, ya'ni mulk sotish yoki sotib olish vaqtida ham to'lanadi. Soliqqa tortishda yer uchastkalarining qiymatini baholash murakkab vazifa hisoblanadi. Bunga asosiy sabab aholi sonining oshishi natijasida yer bahosining ko'tarilishidir.

O'tgan yillar mobaynida, ko'plab mamlakatlarda mol-mulk bozorining o'tish bosqichida turganligi hamda moliyaviy inqirozlar dunyo moliyaviy bozorini zaiflashtirgani barchamizga ma'lum. Shuning uchun, Yevropa Ittifoqi a'zolari kelishgan holda mol-mulk so'lig'i islohotlarini ipoteka xizmatlarining foiz

stavkalarini hamda aholining qarzдорlik ko'rsatkichlarini pasaytirish maqsadida amalga oshirdi. Shu jumladan, Ispaniya o'tgan yildan boshlab yangi ipoteka xizmatlarining foiz stavkalarini keng qamrovda keskin pasaytirishni boshlagan bo'lsa, Gollandiya, Finlandiya va Estoniya mamlakatlari bu keskin o'zgarishlarni ma'lum vaqt davomida sekinlik bilan amalga oshirishni rejalashtirdi. Misol tariqasida shuni aytib o'tish mumkinki, Gollandiya hukumati mol-mulkga egalik qilayotgan jismoniy shaxslarga ular 30 yil mobaynida mol-mulk ning boshlang'ich qiymati to'laqonligicha to'laganligidan so'ng yangi islohotga ko'ra mol-mulk solig'ining stavkasi kamaytirilgan holda to'lanishi belgilab qo'yildi.

Finlandiya mamlakatida mol-mulk solig'i 2015-yilga kelib 70% ga kamaytirilishi rejalashtirilayotgan bo'lsa (hozirgi vaqtda 80% tashkil etadi), Estoniya hukumati 2012-yilgi mol-mulk solig'ining stavkasini 40% miqdorida kamaytirishga qaror qildi.

Ba'zi Yevropa mamlakatlar iqtisodiy o'sishga bo'lgan salbiy ta'siri sezilarli darajada emasligini xulosa qilib, ko'chmas mulkni soliqqa tortiladigan foiz ko'rsatkichlarini yanada oshirishga qaror qildi. Litva hamda Latvia hukumatlari mamlakatda aholining mol-mulk solig'i bazasini kengaytirishni va mahalliy hokimiyat tomonidan bundan oldingi soliq tizimidan kelib chiqqan holda yangi solig' stavkalarini o'zgarmas holda belgilanishini amalga oshirdi. Shu jumladan, ba'zi Yevropa mamlakatlarida bu islohotlarning asosiy maqsadi etib yirik miqdordagi mol-mulklarni hamda jamiyatning bu islohotlarga bo'lgan keskin harakatlarni e'tiborga olgan holda mol-mulk solig'ini yanada barqarorligini ta'minlash deya e'tirof etilgan. 2012-yilning iyun oyida, Sloveniya hukumati yangi yirik miqdordagi mol-mulkni soliqqa tortish tizimini joriy qildi (tijorat hamda tadbirkorlik maqsadida egalik qilinayotgan mol-mulk bundan mustasno). Umumiy qiymati 1 million yevrodan ortiq bo'lgan mol-mulk 0.5% stavka bo'yicha soliqqa tortiladigan bo'ldi (qiymati 2 million yevrodan ortiq bo'lgan mol-mulk uchun esa soliq 1 foiz etib belgilandi). Bu soliq to'lovi keyinchalik 2013-yilning yanvar oyiga kelib belgilanadigan mol-mulk qiymatini 5 yuz ming yevroga tushirish hamda

fuqarolarning mol-mulkini soliqqa tortilish stavkasini yanada kamaytirish orqali barqarorlashtirildi. Irlandiya mamlakatida 2013-yilning iyul oyidan boshlab yangi mahalliy mol-mulkni soliqqa tortish tizimi ishga tushirildi (soliq stavkalari mahalliy aholining umumiy qiymati 1 million yevrodan oshmaydigan mol-mulki uchun 0.18% ni, undan yuqori qiymatda belgilangan mol-mulk uchun esa 0.25% ni tashkil etdi). Buyuk Britaniya mamlakatida 2013-yil aprel oyidan boshlab qiymati 2 million funt sterlinggacha belgilangan ma'lum yuridik shaxslarning egalik qilayotgan mol-mulki yangi belgilangan tartibda yillik soliqqa tortish tizimi joriy etildi. Latvia hukumati o'tgan yilning bahoridan boshlab, uch va undan ko'p farzandli oilalarning mol-mulkini soliqqa tortish foiz stavkalari yangi qonun asosida kamaytirilishi mumkinligini qayd etdi.

Qolgan Yevropa mamlakatlari esa soliqqa tortiladigan mol-mulk qiymatini o'zgartirmasliklarini e'tirof etishgan. Biroq, ba'zi Yevropa Ittifoqi a'zolari joriy yilda mahalliy aholining mol-mulkini kadastr bahosini qayta ko'rib chiqishliklarini e'lon qilgan. Ruminiya mamlakatida mahalliy hukumat 2013-yil hisobotiga ko'ra mol-mulkni kadastr qiymatini qayta baholash siyosatini olib borgan taqdirda mol-mulkning kadastr bahosi 16% atrofida o'sish ehtimoli kutilmoqda. Gretsiya hukumati esa yangi mol-mulkni qayta baholash loyihasini taqdim etish ehtimolini matbuot hodimlariga habar bergan. Portugaliya yaqin o'tmishda yangi mol-mulk solig'ini joriy etish siyosatini qo'llab quvvatlovchi qiymati 4.9 millionga teng mol-mulkni qayta baholash yirik loyihasini nihoyasiga yetkazdi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari soliq tizimini isloh qilinishida Kipr Respublikasi singari 2013-yil yanvar oyidagi yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulk soliqi stavkasini oshirish siyosatini olib borishlari ham mumkin. Shuni ta'kidlash lozimki, mahalliy aholining mol-mulk qiymatini qayta baholamasdan soliq stavkalarini oshirish mol-mulkning hozirgi real qiymatining o'zgarishiga olib keladi. Barcha o'zgarishlarni e'tiborga olgan holda, Estoniya hukumati 2013-yil yanvar oyidan boshlab, kichik va o'rta hajmdagi mol-mulkka egalik qilayotgan mahalliy aholini yer solig'idan ozod qilish orqali mol-mulk solig'ining to'lov

qiymatini kamaytirdi. Italiyada esa 2012-yildan buyon joriy etilgan mol-mulkga egalik qilayotgan jismoniy shaxslarni majburiy mahalliy soliq to'lovi kelgusi mol-mulk solig'ini qayta ko'rib chiqish loyihasi tasdiqlangunga qadar vaqtinchalik amalda o'z kuchini yo'qotdi²¹.

Evropa Ittifoqi bo'lgan Avstriyada mol-mulk solig'i qonunchiligida cheklanmagan soliq javobgarligiga ega (rezidentlar) va cheklangan soliq javobgarligiga ega bo'lgan (rezident bo'lmagan) shaxslarni soliqqa tortishda turli ob'ektlar ko'zda to'tilgan.

Birinchisi uchun, qaerda bo'lishidan qat'iy nazar, uning barcha mulki soliqqa tortish ob'ekti hisoblanadi. Ikkinchisi uchun esa faqat Avstriya hududida joylashgan mulklar uchun soliq to'laydi. Soliq yuridik shaxslardan ham, jismoniy shaxslardan ham undiriladi. Shuningdek ko'rib chiqish talab qilinadigan asosiy masala mulkning stavkasi va bahosi bo'lib, bunda bu mulk yuqoridagi aytilgan soliqqa tortiladi. Umumiy bo'lgan stavka bo'yicha shaxsiy mulk solig'i Avstriya va Belgiyada-1%, Daniyada-2,2%, Niderlandiyada-0,8%, Germaniyada, jismoniy shaxslar uchun-0,5% (1%), korporatsiyalar uchun-0,6%, Yaponiyada-1,4%da undiriladi. Progressiv soliqqa tortish Frantsiyada 0dan 1,5%gacha, Shvetsiyada 3% gacha, amal qiladi. Tahlil qilinayotgan barcha davlatlarda soliqqa tortish maqsadi uchun bozor qiymati bahosidan foydalaniladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish lozimki, mol-mulkni soliqqa tortishning bu turi soliq to'lovchini, to'lov qobiliyatini soliqqa tortish tamoyiliga ko'proq va to'liqroq javob beradi, daromad solig'iga qo'shimcha bo'lib xizmat qiladi, qoidaga asosan, tartibga solish harakteriga ega bo'lib, bunda ko'proq mulkdor shaxslarni soliqqa tortish ko'zda to'tilgan. U qo'llanayotgan mamlakatlarning ko'pida, unga asosan tushumlar soliq tushumlari umumiy so'mmasida uncha katta emas. Vaholanki, mahalliy byudjetlarda u fiskal vazifani bajarishi aniq.

²¹ Jo'rayev A.S. Mol-mulk solig'i: horijiy amaloyot. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliqlarning rag'batlantiruvchanlik rolini yanada oshirish yo'llari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. 2014 yil 22 fevral. TMI.136-138 betlar.

Mulk soliqlaridan keyingi o'rin meros va hadyaga taaluqli soliq hisoblanadi. Meros solig'i – bu yangi mulk egasiga merosga egalik qilish huquqi bilan birgalikda o'tadigan mulk solig'idir (ko'chmas va ko'chma). hadya solig'i- sovg'a sifatida bir mulk egasidan boshqasiga o'tadigan mulk solig'i (ko'chmas va ko'chma). Tijorat shartnomasiga asoslanmay yangi egasiga o'tadigan huquqqa ega bo'ladigan, ikkala soliqlarga ham tortiladigan mulk bo'lsa, bu soliqlar bir guruhga birlashadilar va egalik huquqidan mulkka o'tadigan soliqlar deb nomlanadilar. Amalda barcha rivojlangan davlatlarda meros va hadyani soliqqa tortish markaziy (federal) darajada amalga oshiriladi.

Soliqqa tortish bo'ektini aniqlash usuliga qarab, meros va hadyani soliqqa tortishning ikki turi qo'llaniladi. Barcha meros va hadyaning qiymati soliqqa tortilishi mumkin. Soliqqa tortishning bu turi AQSh, Buyuk Britaniya, Shimoliy Irlandiya va Yangi Zelandiya va Rossiyada amal qiladi. Meros va hadyani soliqqa tortish stavkalari barcha mamlakatlarda murakkab progressiya asosida qurilgan.

Mulkiy soliqlardan keyingisi kapital o'sishiga solinadigan soliq hisoblanadi. Kapital o'sishiga solinadigan soliq yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarning mulkni sotishdan oladigan daromadlariga solinadi. Daniya, Irlandiya, Portugaliya, Shveytsariya va Buyuk Britaniyada ham yuridik ham jismoniy shaxslar daromadlari shunday soliqqa tortiladi. Avstriya, Belgiya, Germaniya, Gretsiya, Italiya va Niderlandiya davlatlarida yuridik shaxslar (ham xususiy firmalar, ham korporatsiya) kapitali usuviga maxsus soliq solinadi. Iqtisodiy Hamkorlik Davlatlari Tashkiloti mamlakatlarida kapital o'sishini soliqqa tortishning mavjud shakli daromad solig'i xaqidagi qonunlar bilan tartibga solinadi. Mulk qiymatining o'sishi, ya'ni mulk sotish qiymati bilan uning harid qiymati o'rtasidagi farq soliqqa tortish ob'ekti hisoblanadi, bunda uni saqlash uchun ketgan xarajatlar chegiriladi. Soliqqa tortishning bunday to'rini yordamchi soliqlarga kiritish mumkin, bu aktivlarning o'sib boruvchi qiymatlari soliqqa tortish imkonini beradi. Chunki boshqa hollarda ular yuridik va jismoniy shaxslardan daromad solig'i bo'yicha "tortiladigan daromad" toifasi talqini doirasini torligi tufayli soliqqa tortilishdan

chetda kolishi mumkin. Yuridik shaxslar kapital usuviga solinadigan maxsus soliqlar bir qator mamlakatlarda ko'chmas mulk bilan chayqovchilik va tijorat operatsiyalarini amalga oshirishdan daromadga soliqni ko'paytirish maqsadida joriy etilgan. Buyuk Britaniya va Irlandiya kapital o'suviga soliq soluvchi an'anaviy mamlakatlar qatoriga kiradi, lekin ularda ham mazkur soliq ikkinchi darajali hisoblanadi. Soliq aktivlar keng spektoriga egalik qilish oqibatida yuzaga keladigan kapital o'suviga ham belgilangan. Irlandiyada soliq stavkasi aktivlar turi va egalik qiladigan davriga bog'liq tarzda 30%dan 50% gacha oraliqda tebranib turadi. Kapital o'sishi solig'i bo'yicha deklaratsiya soliq to'lovchilar tomonidan mustaqil tarzda, soliq idoralarining talabisiz to'ldirib topshiriladi. Soliq deklaratsiyasini belgilangan muddatda topshirmaslik soliq majburiyati negizining 10% miqdordagi jarima bilan jazolashga olib keladi. Aktsiyadorlik jamiyatlari ular soliqqa tortish maqsadida davlat rezidentlari hisoblangan davrda soliqqa tortish sub'ekti hisoblanadi. Barcha turdagi mulklar, qardaliligidan qat'iy nazar aktiv sifatida kapital o'suvi bo'yicha soliqqa tortiladigan ob'ekt hisoblanadi. Aktivlarga egalik qilishning istalgan o'zgarishi-sotish, almashtirish, hadya etish va ishonchnoma asosida boshqarish yo'li bilan bitimni tugallash deganda aktivni tasarruf etish tushuniladi. "Biror aktivni tasarruf etish" natijasida yuzaga keluvchi kapital o'suvini soliqqa tortish, aktiv qiymatini tasarruf etish davrida, ular harid qiymati va xarajatlarini chegirish yo'li bilan belgilanadi. Biror maqsadda olingan aktivni baholash bozor narxlari asosida amalga oshiriladi va kapital o'sishini soliqqa tortishda quyidagi asosiy chegirma hisobdan chiqarish va imtiyozlar qo'llanadi:

-  indeksatsiya;
-  personal chiqimlar;
-  soliqqa tortilmaydigan aktivlar;
-  soliqqa tortilmaydigan kapital o'sishi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, xorijiy davlatlarda mulkning alohida turlari (yer resurslaridan, qurilmalar yoki ularning umumiy ob'ekti–ko'chmas mulklar)dan hokimiyatining mahalliy organlari tomonidan soliqlar undirish nazariy asoslangan.

3.2. Mol-mulk solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibini takomillashtirish yo'nalishlari.

Har qanday soliq tizimi iqtisodiy siyosatning mazmun va shakliga muvofiq tarzda doimo takomillashtirilib borilishi zarur. Bunda asosiy e'tibor xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning davlat byudjeti bilan majburiy to'lovlar bo'yicha iqtisodiy munosabatlarining eng qulay uyg'unligini ta'minlashga qaratilishi zarur. Boshqa soliq turlari singari jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar, ya'ni, mol-mulk va yer solig'ini mavjud mexanizmini nazariy jihatdan tahlili bu soliq turlarini undirishni ham yanada takomillashtirilishi lozim degan hulosani chiqarishga imkon beradi.

Mazkur savolning mohiyatini biz ikki yo'nalishda, ya'ni dastavval yuridik shaxslar bo'yicha, so'ng jismoniy shaxslar bo'yicha mol-mulklarni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlarini izohlashni lozim topdik.

1. Mol-mulkdan soliq olish mexanizmining samarali ishlashi shu soliq amal qilishini ta'minlab turuvchi soliq qonunchiligining va tegishli me'yoriy hujjatlarning barqarorligiga bevosita bog'liqdir. Tadqiqot natijasiga ko'ra, bu soliq ilk bor qo'llanila boshlagandan to hozirgacha bir necha o'ndan otiq turli o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilgan. Bu, ma'lum bir nuqtai nazardan tabiiy deb qaralsa-da, bizningcha, bu narsaga chek qo'yish vaqti keldi. Bu fikrning to'g'ri ekanligini jahon ilg'or tajribasi ham yaqqol ko'rsatib turibdi.

2. Qoldiq qiymatni soliqqa tortish natijasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan byudjet tushumlari yo'qotishlarni bartaraf qilish maqsadida balans aktivining mulk deb inkor etib bo'lmaydigan tegishli schetlaridagi qoldiqlarini soliqqa tortish

hisobiga kiritish lozim. Bo‘lar xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar manfaatlariga to‘liq mos tushishiga quyidagilar orqali to‘liq erishish mumkin bo‘ladi:

- korxonalarning aylanma mablag‘larini vaqtincha to‘xtatib qo‘yadigan ortiqcha hajmdagi moddiy zahiralarini qiskartirish;

- tayyor maxsulotlarning oldi-sotdi (jo‘natish) jarayonlarini jadallashtirish va rivojlantirish;

- ishlab chiqarish texnologik tsikllari vaqtini qisqartirish va tugallanmagan ishlab chiqarish hajmini kamaytirish;

- ishlab chiqarish zahiralarining optimal miqdorini belgilash;

3. Soliq mexanizmining tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki, amalda korxonalar mol-mulk solig‘i bo‘yicha berilgan imtiyozlarning me‘yoriy hujjatlardagi holati, ayrim bandlari bir-birini takrorlaydi hamda kam samarali va ishlamaydigan imtiyozlar ham mavjud. Korxonalar mol-mulk solig‘i bo‘yicha berilgan imtiyozlar ikki xilda:

- ma‘lum korxona va tashkilotlarning mol-mulkini soliqqa tortishdan to‘liq ozod etish;

- soliqqa tortish maqsadida korxonaning mol-mulkiga qarab, ya‘ni korxona mol-mulkining qiymati balans (normativ) qiymatga kamaytirilishidan iborat.

Fikrimizcha korxonalarga imtiyoz berish, u mahalliy korxonami yoki chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonaligidan qat‘i nazar, iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari yo‘naltirilgan u yoki bu halq xo‘jaligi tarmoqlarini rag‘batlantirishga qaratilganligiga ko‘ra berilishi lozim.

4. Amaldagi qoidalarga ko‘ra hozirda mol-mulk solig‘i to‘lovchilarning aksariyati bir xil darajadagi soliq stavkasi bo‘yicha soliqqa tortilayotir. Bu, o‘z navbatida, soliq to‘lovchilarga nisbatan bir xil yondashilayotganligidan dalolat beradi. Fikrimizcha, masalani bu tarzda hal etishga bir oz erta. Chunki soliq to‘lovchilarga nisbatan bir xil talab kuyilishi, o‘z navbatida, ularning barchasi bir xil sharoitga ega bo‘lgan taqdirda o‘z ma‘nosiga egadir. Shuning uchun, mol-muldan olinadigan soliq stavkasini soliq to‘lovchilar mol-mulkini qayta baholash

natijalari va samaradorlik darajasini hisobga olgan holda belgilash maqsadga muvofiqdir. Chunki, qayta baholash va samaralilik ko'rsatkichlarining darajasiga qarab belgilanadigan soliq stavkasi, qayta baholashdan keyingi yillarda amaldagi soliq stakasi nisbatan pastrok o'rnatilmog'i kerak va bu stavka davriy qayta baholashni inobatga olgan holda o'zgarmas harakteriga ega bo'lishi lozim. To'g'ri, mol-mulkdan olinadigan soliq stavkasini o'rnatishga bunday yondashish soliqqa tortish bilan bog'liq bo'lgan jarayonni bir oz murakkablashtiradi. Lekin masalaga real vaziyatni hisobga olgan holda yondashish zarurligini e'tiborga oladigan bo'lsa, ish to'tishning bu shakli maqsadga muvofiqligi yaqqol ko'rinadi.

5. Amalda yuridik shaxslarni mol-mulk solig'iga tortishni nazariy va amaliy tahlil qilish, mol-mulk solig'ini takomillashtirish bo'yicha muayyan xulosalar chiqarishga imkon berdi. Bitiruv malakaviy ishida taklif etilgan birinchi galdagi chora-tadbirlar bo'lib, soliqqa tortiladigan baza sifatida xizmat qiladigan korxonalar mol-mulkini qoldiq qiymatini aniqlash, qayta baholashdan keyin imkon qadar soliq stavkasini pasaytirish, amal qilayotgan imtiyozlarni qisqartirish hamda jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini soliqqa tortishni birin-ketin yaqinlashtirish hisoblanadi. Shuningdek soliqqa tortiladigan ob'ektni kelajakda takomillashtirish maqsadida unga ishlab chiqarish zahiralarini kiritish hisobidan kengaytirish birinchi galda amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy tadbirlardan hisoblanadi.

Bizning nazarimizda mol-mulkni soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning ikkinchi bosqich bo'lib, bunda soliqqa tortish maqsadida yagona ob'ektni o'rnatilishi bo'lishi mumkin, u yagona soliqqa tortiladigan majmua sifatida, soliqqa tortiladigan baza o'z ichiga yer uchastkalarini (shartli ravishda yerning bahosini ishlab chiqish bilan) va asosiy fondlarni qiymatini olib, bix xil soliqqa tortish bazasiga ega bo'lgan yer va mol-mulk soliqlarini ob'ektni (kuchams mulkga) birxillashtirishdan iborat.

Umuman olganda, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini soliqqa tortishni yaqinlashtirish (birxillashtirish) tendentsiyasini inkor etmagan holda,

bizning fikrimizcha ushbu masalani hozirgi zamon sharoitida yanada asoslab va birin-ketin echilishi lozim. Hozircha mol-mulk solig'i va yer solig'i bo'yicha amaldagi tashkil qilingan soliqqa tortish tartibini saqlab turish zarurdir. Xullas yer resuslari, qurilish, bino va inshootlarning bozor qiymati amaldagi holatga javob berishi kerak, chunki u soliqqa tortiladigan bazani aniqlash uchun ular asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuridik shaxslar mol-mulk solig'ini o'zgartirish borasidagi yana bir tavsiyalardan biri bo'lib, amalda mavjud bo'lgan imtiyozlarni qisqartirish, ya'ni kaysi toifaga ularni tegishliligidan qat'i nazar, mol-mulk egalari o'rtasida tenglikni amalga oshirishdan iborat. Ma'lum darajada soliq to'lovchilarni soliqdan ozod qilish, erkin pul mablag'laridan samarali foydalanish uchun investitsiya resurslarini sotib olishga imkon beradigan yo'nalishlarga safabar qilish lozimdir. Shunday qilib moliyaviy aktivlarga safabar qilingan u yoki bu korxonalarning mablag'lari imtiyozli tartiblar o'rnatilishi orqali davlat uchun qulay bo'lgan yo'nalishda kapitalni tarmoqlarga to'g'ri va teng quyilisha olib keladi. Kelgusida moliya bozorini, jumladan ko'chmas mulk bozorini rivojlantirish chorasi sifatida, mulkdorlar tassarufigidagi mulk hajmini amaldagi tabaqalashuvi (differentsiyatsiyasi)ni ushbu mulklarni soliqlar orqali boshqarilish ta'minlaydi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha quyidagilarni hisobga olish lozim deb hisoblaymiz:

- Respublika hududida mavjud bo'lgan jami mulk, dala xovlilar, har xil qurilmalar egalari hamda yer maydonlarini to'liq hisobga olinishini ta'minlash natijasida soliq to'lovchilar sonini va hisoblangan soliqlar summasini oshirish;

- mol-mulk solig'i bo'yicha Soliq kodeksining 93 va 102 moddalarida belgilangan imtiyozlarni qaytadan o'rganib chiqib, ayrim maqsadga nomuvofiq imtiyozlarni bekor qilish;

- yangidan zamonaviy tarzda bunyod etilayotgan xususiy turar joylarni hududiy kadastr texnik ro'yxatga olish byurolari (KBTI) tomonidan

inventarizatsiya qilib baholash ishlarini ta'minlash borasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

- hududiy kadastr texnik ro'yxatga olish byurolari tomonidan jismoniy shaxslarga mulk sifatida tegishli bo'lgan imoratlar va inshootlarni inventarizatsiya qilib baholashda qo'llanilayotgan ko'taruvchi koeffitsientlarni har yili vujudga kelayotgan inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqib, tasdiqlash borasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlariga tegishli topshiriq berish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;

- hisoblangan mol-mulk va yer soliqlarini yillik summasini I-chorak davomida to'lagan to'lovchilarga shu hisoblangan summaning 10 foizi, II-chorak davomida to'laganlarga esa 5 foizi xajmida imtiyoz qo'llanilishini joriy qilish.

XULOSA

Mazkur bitiruv malakaviy ishida mol-mulk solig'ining nazariy va amaliy asoslarini o'rganish, ushbu soliqning byudjet daromadlaridagi ulushini, xususan mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini, yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulkini soliqqa tortishning amaldagi tizimini tahlil qilish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulkini soliqqa tortish mexanizmidagi muammolarni bartaraf qilish va soliqni undirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagi nazariy xulosalar hamda amaliy tavsiyalarni asoslashga harakat qilindi. Ular quyidagicha:

1. Mamlakatimiz iqtisodiyotida bo'layotgan tub o'zgarishlar soliq tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblangan mol-mulk solig'ini ham takomillashtirishni talab etmoqda. Shuningdek, ushbu soliq turi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida faqatgina davlat byudjetini mablag' bilan ta'minlash vazifasini bajaribgina qolmay, soliq to'lovchining o'zini mulkdor deb xis qilishga ta'sir ko'rsatuvchi omil vazifasini ham bajaradi va moddiy jihatdan ta'minlashga imkon beradi.

2. Soliqdan davlat byudjetiga tushumlarning absolyut va nisbiy ko'rsatkichlarda o'sishining asosiy sababi soliq to'lovchilar ixtiyorida mulkiy soliqlar bazasining o'sishi hamda jismoniy shaxslardan olinadigan mulk soliqlari stavkalarining oshirib borishi bilan izohlanadi.

3. Mol-mulkdan olinadigan soliq O'zbekiston Respublikasining soliq tizimida markaziy o'rinlardan birini egallamasada (jumladan hozirgi kunda ushbu soliq yordamida davlat byudjeti daromadlarining 3-4 foizini shakllantirmoqda), mamlakatimiz soliq tizimida o'ziga xos o'ringa ega. Chunki bu soliq, birinchi navbatda mahalliy byudjetlarning daromad manbalarini mustaxkamlashda ham alohida o'rin tutadi.

4. Mol-mulkdan soliq olish mexanizmining samarali ishlashi shu soliq amal qilishini ta'minlab turuvchi soliq qonunchiligining va tegishli me'yoriy hujjatlarning barqarorligiga bevosita bog'liqdir. O'rganish natijasiga ko'ra, bu

soliq ilk bor qo'llanila boshlagandan to hozirgacha bir necha o'ndan otiq turli o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilgan.

5. Mol-mulk solig'ini hisoblash ob'ekti bo'lib hisoblanadigan qoldiq qiymatni soliqqa tortish natijasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan byudjet yo'qotishlarini bartaraf qilish maqsadida balans aktivining mulk deb inkor etib bo'lmaydigan tegishli schetlaridagi qoldiqlarini ham soliqqa tortish hisobiga kiritish lozim. Bular xo'jalik yurituvchi sub'ektlar manfaatlariga to'liq mos tushadi.

6. Korxonalarga imtiyoz berishda investitsiya manbasiga ko'ra, u mahalliy korxonami yoki chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona ekanligidan qat'i nazar, iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari yo'naltirilgan u yoki bu halq xo'jaligi tarmoqlarini rag'batlantirishga qaratilganligiga qarab berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

7. Soliq qonunchiligiga asosan hozirda mol-mulk solig'i to'lovchilarning aksariyati bir xil darajadagi soliq stavkasi bo'yicha soliqqa tortilmoqda. Bu narsa esa, soliq to'lovchilarga nisbatan bir xil yondashilayotganligidan dalolat beradi. Soliq to'lovchilarga nisbatan bir xil talab kuyilishi, o'z navbatida, ularning barchasi bir xil sharoitga ega bo'lgan taqdirda o'z ma'nosiga egadir. Shuning uchun, mol-mulkdan olinadigan soliq stavkasini soliq to'lovchilar mol-mulkini qayta baholash natijalari va samaradorlik darajasini hisobga olgan holda belgilash maqsadga muvofiqdir. Chunki, qayta baholash va samaralilik ko'rsatkichlarining darajasiga qarab belgilanadigan soliq stavkasi, qayta baholashdan keyingi yillarda amaldagi soliq stakasi nisbatan pastrok o'rnatilmog'i kerak va bu stavka davriy qayta baholashni inobatga olgan holda o'zgarmas harakteriga ega bo'lishi lozim.

8. Iqtisodiy asoslangan shart-sharoitlarni tashkil etish maqsadida takror ishlab chiqarish orqali pul mablag'lari resurslarni shakllantirishda korxonalarda asosiy ishlab chiqarish fondlarini davriy inflyatsiya yuqori suratlarini hisobga olgan holda asosiy ishlab chiqarish fondlarini qayta baholash amalga oshiriladi. Bu xo'jalik faoliyatini yurituvchi barcha korxonalar va tashkilotlarga, mulkchiligidan va faoliyat turidan qat'i nazar ularga tegishli hisoblanadi. Qayta baholashga korxona

asosiy fondlari hisoblanadigan, binolar, inshootlar, o'zatuvchi moslamalar, transport vositalari, mashinalar, asbob-uskunalar va boshqa turdagi asosiy vositalar eskirish darajasidan qat'i nazar tegishli bo'lib hisoblanadi. Asosiy fondlarni qayta baholashda dastlabki ma'lumotlar ko'zda tutilib, ularning to'liq balans qiymatini aniqlashda, asosiy fondlarining qiymatini qayta baholash (hisoblash)da indekslaridan foydalaniladi. Asosiy fondlar tiklash qiymati bo'yicha qayta baholanib, balans qiymatini tegishli koeffitsientlarga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishida taklif etilgan birinchi galdagi chora-tadbirlar bo'lib, soliqqa tortiladigan baza sifatida xizmat qiladigan korxonalar mol-mulkini qoldiq qiymatini aniqlash, qayta baholashdan keyin imkon qadar soliq stavkasini pasaytirish, amal qilayotgan imtiyozlarni qisqartirish hamda jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini soliqqa tortishni birin-ketin yakinlashtirish hisoblanadi. Shuningdek soliqqa tortiladigan ob'ektni kelajakda takomillashtirish maqsadida unga ishlab chiqarish zahiralarini kiritish hisobidan kengaytirish birinchi galda amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy tadbirlardan hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mol-mulk solig'ini o'zgartirish borasidagi yana bir tavsiyalardan biri bo'lib, amalda mavjud bo'lgan imtiyozlarni qisqartirish, ya'ni kaysi toifaga ularni tegishliligidan qat'i nazar, mol-mulk egalari o'rtasida tenglikni amalga oshirishdan iborat. Ma'lum darajada soliq to'lovchilarni soliqdan ozod qilish, erkin pul mablag'laridan samarali foydalanish uchun investitsiya resurslarini sotib olishga imkon beradigan yo'nalishlarga safabar qilish lozimdir. Shunday qilib moliyaviy aktivlarga safabar qilingan u yoki bu korxonalarning mablag'lari imtiyozli tartiblar o'rnatilishi orqali davlat uchun qulay bo'lgan yo'nalishda kapitalni tarmoqlarga to'g'ri va teng quyilisha olib keladi. Kelgusida moliya bozorini, jumladan ko'chmas mulk bozorini rivojlantirish chorasi sifatida, mulkdorlar tassarufigidagi mulk hajmini amaldagi tabaqalashuvi (differentsiyatsiyasi)ni ushbu mulklarni soliqlar orqali boshqarilish ta'minlaydi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini soliqqa tortishda quyidagi takliflarni amalga oshirilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan mulk, dala xovlilar, har xil qurilmalar egalari hamda yer maydonlarini to'liq hisobga olinishini natijasida soliq to'lovchilar sonini aniqlashtirish va ularga nisbatan soliq stavkasini oshirib borish;

- ayrim kam samara berayotgan imtiyozlarni qayta ko'rib chiqilishi va ulardan kelgusida foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqish;

- jismoniy shaxslar to'laydigan mol-mulk solig'i bo'yicha oshirilgan stavkalarni belgilashda uyning umumiy maydonidan emas, balki unda yashovchilarning har biriga to'g'ri keladigan yashash maydoni miqdoridan kelib chiqilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

- jismoniy shaxslar mol-mulklarining haqiqiy bozor bahosi hisobga olinmaydi. Shuning uchun mol-mulklarni va tugallanmagan inshootlarni qayta baholash ishlari hozirgi kundagi haqiqiy bozor bahosidan ancha past baholanmokda. Natijada qayta baholangan mol-mulklarning bahosi haqiqiy bozor bahosidan ancha farq qiladi. xuddi shunday ko'pchilik yangi qurilgan (uy,dala hovli,kottejlar) uylarning texnik ruyxatga olish byurosidan ro'yxatdan o'tkazish, mulkni baholash va kayta baholash ayniqsa muhimdir. Buning ustiga soliq stavkasi mulkning BTI baholagan qiymatiga qo'llanilayotganligi, mahalliy byudjetlar daromadining kamayishiga olib kelmokda, shuning uchun qurilish mollari va ishlar bozori narxlarini ham hisobga olgan holda, jismoniy shaxslarning mulk solig'i stavkasini har 2 yilda yil boshiga hisobga olishda indeksatsiya koeffitsientini qo'llash maqsadga muvofiq degan xulosaga kelish mumkin.

- hududiy kadastr texnik ro'yxatga olish byurolari tomonidan jismoniy shaxslarga mulk sifatida tegishli bo'lgan imoratlar va inshootlarni inventarizatsiya qilib baholashda qo'llanilayotgan ko'taruvchi koeffitsientlarni har yili vujudga kelayotgan inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqib, tasdiqlash borasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlariga tegishli topshiriq berish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;

- Mol-mulkni inventarizatsiya qiymati bo'yicha baholashdan voz kechish hamda bozor qiymati buyicha baholashni qabul qilish, soliq summasini turli koeffitsientlar vositasida yoki boshqa usullar bilan yangicha hisoblashga o'tish usullarini ishlab chiqish;

- Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash hisobot yilining 15 oktyabriga qadar belgilangan bo'lib, bu muddatdan oldin masalan ketma-ket 3 yil davomida soliq summasini 1 fevralga qadar to'liq to'lagan shaxslarga soliqdan imtiyozlar 5% miqdorida kamaytirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki bu imtiyoz soliq summasini o'z vaqtida to'lanishidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari.

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: - T.: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012 y. -40 B.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi: Rasmiy nashr -O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi - T.: "Adolat", 2014 y. -590 B.

1.3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni. 1997 yil, 29 avgust.

1.4. O'zbekiston Respublikasining "Soliq maslahati to'g'risida"gi qonuni. 2006 yil 21 sentyabr. //Soliqlar va bojxona xabarlar gazetasi. 2006 yil 21 sentyabr.

1.5. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonuni. 2000 yil 14 dekabr. //Soliqlar va bojxona xabarlar gazetasi. 2001 yil 2-son.

1.6. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 5 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zR-379-sonli Qonuni.

1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1675-sonli Qarori (2011 yil 30 dekabr).

1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1887-sonli Qarori (2012 yil 25 dekabr).

1.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 2099-sonli Qarori (2013 yil 25 dekabr).

1.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2270-sonli Qarori (2014 yil 4 dekabr).

1.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi “Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1257 sonli Qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va ma’ruzalari

1.12. Karimov I. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. - Toshkent.: “O‘zbekiston” 1995 y.

1.13. Karimov I. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik. –T.: “O‘zbekiston”. 2005.

1.14. Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokrat-lashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2005.

1.15. Karimov I. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. -T.: “O‘zbekiston”. 2009.

1.16. Karimov I. “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi”. //Toshkent oqshomi gazetasi. 2009 yil 16 fevral. №32.

1.17. Karimov I. Mamlakatimizni yanada obod etish va modernizatsiya qilishni qat’iyat bilan davom ettirish yo‘lida. –T.: “O‘zbekiston”, 2013. 384 bet

1.18.Karimov I. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. –T.: “O'zbekiston”, 2013. 80 bet

1.19.Karimov I. O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak. –T.: “O'zbekiston”, 2013. 36 bet

1.20.Каримов И. На пути решительного продолжения дальнейшего процветания и модернизации страны. –Т.: “Узбекистан”, 2013. 208 стр.

1.21.Karimov I. “2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi” Prezident Islom Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi. 2012 yil 19 yanvar.

1.22.Karimov I. “Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish” O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2013 yil 19 yanvar.

1.23.Karimov I. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2014 yil 19 yanvar.

1.24.Karimov I. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir”. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning

2014-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //Halq so'zi. 2015 yil 19 yanvar.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar.

Darslik va o'quv adabiyotlari:

2.1. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. //Darslik. –T.: “Sharq”. 2009. -526 b.

2.2. Almardonov M., Kuzieva N. Soliqlar va soliqqa tortish. -T.: “Iqtisod-moliya”. 2007.

2.3. Sanaqulova B. Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish. –T.: “NOSHIR”, 2012. 236 bet.

2.4. Xabibullaev I., Djaylavov A. Soliq tizimida axborot texnologiyalari. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009. 220 bet.

2.5. Mirzamaxmudov M. Davlat maqsadli jamg'armalaridan foydalanish samaradorligini oshirishda iqtisodiy tejamkorlik. –T.: “Fan va texnologiya”, 2013. 112 bet.

2.6. Urazov K., Xudayberdiev N. Soliqlar va to'lovlar auditining xususiyatlari. Samarqand, 2012. 300 bet.

2.7. Adizov A. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy masalalari. Risola. –T.: “Akademnashr”, 2012. 128 bet.

2.8. Soliev A. Korxona iqtisodiyoti. –T.: “Fan va texnologiya”, 2013. 368 bet.

2.9. Usmanova M. Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortish muammolari. Monografiya. –T.: “Tamaddun”, 2013. 144 bet.

2.10. Vaxabov A., Toshmatov Sh., Haydarov N. Moliya savodxonligi

asoslari. –T.: “Bakteriya-press”, 2013. 288 bet.

2.11. Almardonov M. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. –T.: “Cho’lpon nomidagi NMIU”, 2013. 296 bet.

2.12. Meyliev O. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda soliqlarning o’rni. Monografiya. –T.: “Tamaddun”, 2013. 136 bet.

2.13. Amanov A. Qishloq xo’jaligi korxonalarini soliqqa tortishning metodologik asoslari. Monografiya. –T.: “Tamaddun”, 2015. 114 bet.

2.14. Yuldashev I. Soliq va soliqqa tortish. -T.: Fan va texnologiyalar. 2007.

2.15. Toshmurodova B. Soliq nazorati. //O’quv qo’llanma. – T.: Iqtisod-moliya. 2007.

2.16. Fayziev Sh. Soliq va to’lovlar auditining xususiyatlari. -T.: “Iqtisod-moliya”. 2006.

2.17. Vahobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. //O’quv qo’llanma. -T.: Iqtisod-moliya. 2005.

2.18. Jo’raev A., Safarov G’. Soliq nazariyasi. //O’quv qo’llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”. 2005.

2.19. Abduraxmonov O., Kushakaev B. Soliq islohotlari: izchillik va tadrijiylik. -T.: “Akademiya”. 2005.

2.20. Zavalishina I. Soliqlar: nazariya va amaliyot. //O’quv qo’llanma. -T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”. 2005.

2.21. Jo’raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo’llari. //monografiya. –T.: “Fan”. 2004.

2.22. Toshmatov Sh., Komilov M. Qo’shilgan qiymat solig’i. -T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”. 2004.

2.23. Yahyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. //O’quv qo’llanma. - T.: 2003.

2.24. Mamanazarov A. Soliq siyosati. -T.: “Moliya”. 2003. 19-bet.

2.25. Toshmurodova B. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi. –T.: “Yangi asr avlodi”. 2002.

- 2.26. Торговля в Узбекистане. Статистический сборник. –Т.: Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. 2013. 186 стр.
- 2.27. Финансы Узбекистана. Статистический сборник. –Т.: Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. 2013. 136 стр.
- 2.28. Нигмаджанов У. Экономическая теория. Учебник. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2013. 328 стр.
- 2.29. Юринова Л. Налоги и налогообложение. -СПб.: “ПИТЕР”. 2007.
- 2.30. Бодрова Т. Налоговый учет и формирование учетной политики для целей налогообложения. -М.: “Дашков и К”. 2006
- 2.31. Малихин В. Экономико-математическое моделирование налогообложения. //Учебное пособие. -М.: “Висшая школа”. 2006.
- 2.32. Романова А. Организация и методы налоговых проверок. //Учебное пособие. -М.: “Вузовский учебник”. 2006.
- 2.33. Лукаш Ю. Оптимизация налогов. Методы и схемы. -М.: “Гросс Медиа”. 2005.
- 2.34. Абдурахманов О. Налоговые системы стран с переходной экономики. –М.: Палеотип. 2005.
- 2.35. Миляков. Н. Налоги налогообложение. -М.: Инфра-М. 2005. стр. 69.
- 2.36. Макарева В. Оптимизация налогообложения. –М.: ООО “Горячая линия бухгалтера”. 2005. стр. 56.
- 2.37. Сердюков А. Налоги и налогообложение: Учебник для вузов. -СПб.: “ПИТЕР”. 2005. стр. 51
- 2.38. Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. -М.: “Кнорус”. 2004.
- 2.39. Пансков В., Князев В. Налоги и налогообложения. -М.: МЦФЕР. 2003. 57 стр.
- 2.40. Романовский М. Налоги и налогообложение.. -СПб.: “ПИТЕР”.

2003.

2.41.Пансков В., Князев В. Налоги и налогообложение. //Учебник. –М.: МЦФЕР. 2003.

2.42.Перов А., Толкушкин А. Налоги и налогообложение. //Учебное пособие. -М.: “Юрайт-Издат”. 2003.

2.43.Черник Д., Павлова Л., Дадашев А. Налоги и налогообложение. //Учебник. -М.: ИНФРА-М. 2003.

2.44.Юткина Т. Налоги и налогообложение. -М.: “ЮНИТИ”. 2002.

2.45.Поляк Г. Налоги и налогообложение. -М.: “ЮНИТИ”. 2002.

2.46.Финансово-кредитный энциклопедический словарь. //Под ред. А.Грязновой. -М.: “Финансы и статистика”. 2002.

2.47.Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. - М.: “Бератов-Пресс”. 2002.

2.48.Миляков Н. Налоги и налогообложение: Практикум. -М.: “ИНФРА-М”. 2001.

2.49.James E.Smith. West Federal taxation: Taxation of business entities. 2005 e.

2.50.Griffin & Ebert. Business. 7th edition. Prentice-Hall. 2004.

Ilmiy jurnallardagi maqolalar va tezislar:

2.51.Jo’raev A. Daromad, byudjet va soliqlar.//Soliq to’lovchining jurnali. — Toshkent, 2004. №4, - B. 27.

2.52.Niyozmetov I. Soliq yukini mikrodarajada baholashning ob’ektiv zarurati. //Bozor pul va kredit. - Toshkent, 2007. - №5. - B. 51-53.

2.53.“Soliq tizimini takomillashtirish yo’nalishlari” //Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. –T.: “Iqtisod-moliya”. 2011.

2.54.“Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliqlarning rag’batlantiruvchanlik rolini yanada oshirish yo‘llari” // Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. –T.: “RISO”. 2014 yil 22 fevral.

III. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar.

- 3.1. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2010 yil. -T.:2010.-№12.
- 3.2. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2011 yil. -T.:2011.-№9.
- 3.3. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2012 yil. -T.:2012.-№6.
- 3.4. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2013 yil. -T.:2013.-№4.
- 3.5. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2014 yil. -T.:2014.-№1.
- 3.6. O'zbekiston statistik axborotnomasi. - Toshkent, 2012 - 2014.

IV. Internet saytlari.

- 4.1. <http://www.prezident.uz>-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti.
- 4.2. <http://www.gov.uz>-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rasmiy sayti.
- 4.3. <http://www.soliq.uz>-O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti.
- 4.4. <http://www.mf.uz>-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.
- 4.5. <http://www.nalog.ru>-Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati rasmiy sayti.
- 4.6. <http://www.stat.uz>-O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti.
- 4.7. <http://www.lex.uz>-O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi huquqiy axborot bilan ta'minlash markazi rasmiy sayti.